

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 261 (1050), 2023-yil 15-dekabr, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



## AVTOMOBILSOZLIKNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA TAKLIFLAR KO‘RIB CHIQLDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-dekabr kuni avtomobilsozlik va qishloq xo‘jaligi mashinasozligini rivojlantirish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida bu sanoat tarmoqlari izchil modernizatsiya qilinmoqda. Logistika va avtomobil ishlab chiqarish 3 barobar ko‘payib, joriy yil yakunida 415 ming donaga yetishi kutilmoqda. Sohada davlat monopoliyasini yo‘q qilish va raqobatni rivojlantirish maqsadida 3 ta yangi xususiy korxonaga va nufuzli xorijiy brendlar jalb etildi. Bugun yurtimizdagi 8 ta zavodda o‘nlab turdagi avtomobillar, yuk va yo‘lovchi tashish transportlari, qishloq xo‘jaligi va maxsus texnikalar ishlab chiqarilmoqda.

Shuningdek, bu sohada 2 mingdan ziyod korxonaga yaxlit kooperatsiya tarmog‘iga bog‘landi va 50 foiz mahalliy lashtirish ta‘minlandi.

Shu bilan birga, bozorda talab hali ham yuqori. Ham tashqi, ham ichki bozorda avtozavodlar o‘rtasida raqobat kuchaymoqda. Endi “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati ham mahsulotlar modelini kengaytirib, sifatini yaxshilash, tannarxni kamaytirib, raqobat muhitida ishlashga o‘tishi zarur.

Taqdimotda shu boradagi chora-tadbirlar, tarmoq oldidagi vazifalar muhokama qilindi.

Xususan, mamlakatimizda yengil avtomobil ishlab chiqarishni 2030-yilgacha 1 million donaga yetkazish maqsad qilingan. Yig‘ilishda bu borada 2024-yilda amalga oshiriladigan vazifalar belgilab olindi.

Davlatimiz rahbari “O‘zavtosanoat”ni transformatsiya qilishni jadallashtirish, xarajatlarni kamaytirish lozimligini ta‘kidladi.

Ma‘lumki, bugungi kunda jahondagi yetakchi avtozavodlar elektromobil ishlab chiqarishga o‘tmoqda. Mamlakatimiz sanoatchilari ham tezroq bu yo‘nalishni o‘zlashtirib, zamon talabiga moslashmasa, kelgusida bozorda o‘rin topishi yanada qiyin bo‘ladi.

Bu borada ilk loyihalar boshlangan. Kelgusi yil-da shunday zavod ishga tushirilib, 10 mingta elektromobil ishlab chiqarilishi ko‘zda tutilgan.

Prezidentimiz bu yo‘nalishga alohida e‘tibor qaratish muhimligini ta‘kidlab, tarmoq korxonalarida elektromobillar uchun butlovchi qismlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ko‘rsatma berdi.

Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi tarmog‘ida bu yil 3 ming 500 donadan ortiq texnika ishlab chiqarilgan. 2030-yilgacha bu miqdorni yiliga 16 ming donaga yetkazish mo‘ljallangan.

Bu yil Chirchiq shahrida qishloq xo‘jaligi mashinasozligi klasteri tashkil etildi. U yiliga 15 ming dona traktor, tirkama va boshqa texnikalar ishlab chiqarish quvvatiga ega. Lekin ularni sotish tizimi zamon talablariga mos kelmayapti.

Shu bois, mahalliy texnika xaridini qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish, klaster va fermerlarni jalb etib, bu borada buyurtmalar shakllantirish zarurligi ta‘kidlandi va qo‘shimcha choralar belgilandi. Milliy traktorni mahalliy lashtirish darajasini 35 foizga, osma texnika va tirkamalarni o‘rtacha 60 foizga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

O‘ZA

## NUQTAYI NAZAR

### PAXTACHILIK — QO‘SHILGAN QIYMAT YARATISHDA ULKAN SALOHİYATGA EGA TARMOQ

Unga bozor munosabatlarining tatbiq etilishi yuqori natijadorlikni ta‘minlaydi

Agrar soha rivoji uchun ilmfan va amaliyot integratsiyasini chuqurlashtirishning ahamiyati katta. Jahonda kuzatilayotgan iqtisodiy va ekologik muammolar o‘z o‘rnida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali mahalliy qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmini oshirish zaruratini yuzaga keltiradi. To‘qimachilik sanoatida tabiiy o‘simlik tolalari keng qo‘llanilishi esa paxta talasiga talab oshishiga olib kelmoqda.



Ma‘lumotlarga ko‘ra, “oq oltin” yetishtirishdan olinadigan global biznes daromadi yiliga 500 milliard dollardan oshgan. Anglash mumkinki, mazkur ekin iqtisodiy jihatdan eng muhim qo‘shimcha qiymatga ega. Mana shu bahoning o‘zaro soha xodimlari, seleksionerlar oldiga turli iqlim sharoitlari, kasallik va zararkundalarga chidamli, yuqori hosildor va a‘lo to‘li g‘o‘za navlarini yaratishdek muhim vazifani qo‘yadi. Yana bir gap, dunyo bo‘yicha paxta yetishtiriladigan maydonlarning 95 foizdan ortig‘ida o‘rta to‘li g‘o‘za turi ekiladi. Demak, oliy to‘li turini yaratish va hosil olishning ahamiyati katta.

Davomi 3-betda

## TAHLIL VA TAQQOS



### Global MIQYOSDAGI MEZONLAR

O‘zbekistonning jahonda tutgan o‘rni va nufuziga qanday baho beryapti?

Xalqaro reyting va indekslar muayyan holatni turli yo‘llar bilan aniqlaydigan, har qanday mamlakatda bir yoki bir nechta yo‘nalishdagi vaziyatni to‘g‘ri ifodalab beradigan ko‘rsatkichlarni qamrab oladi. Shu asosda ular har bir davlatning jahon hamjamiyatidagi o‘rni va mavqei belgilash, olib borilayotgan islohotlarga xolis baho berishga xizmat qiladi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, hozir jahonda 160 dan ortiq xalqaro reytinglar mavjud, ulardan 50 ga yaqini ta‘sir doirasi yuqorilab sirasiga kiradi. Keyingi yillarda bu reytinglar mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ahvoli, infrazilmaviy va raqamli rivojlanish holati, sog‘liqni saqlash tizimi, davlat boshqaruvi sifati, inson huquqlari himoyasi hamda aholining turmush darajasini

baholash imkoniyatini yaratmoqda. Dunyo davlatlari shunga asoslanib, moliyaviy aktivlarini qayerga yo‘naltirish, kim bilan qanday hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni muhokama qilib, hatto investitsiya kiritishga qulay muhit mavjud bo‘lgan mamlakatlarni o‘rganadigan va tanlaydigan bo‘lib qoldi.

Davomi 4-betda

## O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI 2030

### INSON VA TABIAT MUVOZANATIGA ASOSLANGAN TIZIM

Bugungi kunda dunyoda iqlimning tobora yomonlashib borayotgani, COVID-19 pandemiyasi, geosiyosiy keskinlashuvlar, global inflyatsiya inqirozi kabi vaziyatlar jahon iqtisodiyotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu holat ishlab chiqarish, savdo va investitsiyalarni qisqartirmoqda, qashshoqlik, tengsizlik va beqarorlikni oshirmoqda. Bularning barchasi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga tahdid solmoqda.

BMT hisobotlariga ko‘ra, 2023-yilda global iqtisodiyotning o‘shishi so‘nggi o‘n yilliklardagi eng past ko‘rsatkichlardan biri bo‘lishi va yil yakunida bu ko‘rsatkich 2,3 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Ushbu sharoitda insoniyat va atrof-muhitning umumiy merosiga asoslangan iqtisodiyot modelini rivojlantirish zarur. Bu

qanday bo‘ladi? Iqtisodiyotning bu modeli tabiiy resurslardan samarali va mas‘uliyatli foydalanish, daromadlar va boyliklarning yanada mutanosib taqsimlanishi, qarorlar qabul qilishda fuqarolarning faol ishtirok etishi, odamlar va tabiat o‘rtasidagi uyg‘un munosabatlarga yordam beradi.

Davomi 2-betda

## ISLOHOT ODIMLARI

### ENERGETIKA RIVOJI ODAMLAR QALBIGA HAM YORUG‘LIK, NUR OLIB KIRMOQDA

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta‘minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarda faol joriy etish, 2026-yilga borib elektr energiyasi ishlab chiqarish ko‘rsatkichini qo‘shimcha 30 milliard kilovatt-soatga oshirib, jami 100 milliard kilovatt-soatga yetkazish vazifasi belgilangan. Vazifa uddalansa, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi 25 foizga yetib, yiliga qariyb 3 milliard kub metr tabiiy gaz tejaladi.

Surxondaryo viloyatida ham ana shu dasturiy vazifalar ijrosini ta‘minlash, aholi, ijtimoiy soha inshootlari, iqtisodiyot tarmoqlarini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta‘minlash chora-tadbirlari izchil davom etmoqda. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish, tizimni bosqichma-bosqich yangilash, infrazilmaviy rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilayapti.

To‘palang suv omborining quyi qismida qayta tiklanuvchi, “yashil energiya” hosil qilish imkonini beruvchi GES qurilishiga kirishilganida ushbu loyihaning ishtirokchisi bo‘lgan ham bor edi. Ammo bu boradagi qat‘iy va izchil sa‘y-harakatlar o‘z samarasini bera boshladi.

Davomi 2-betda

## EKSKLYUZIV INTERVYU

### “OTAM VATAN HASRATI VA MUHABBATINI MEROS QOLDIRGAN”

USMONXO‘JA PO‘LATXO‘JAYEVNING FARZANDI TEMUR XO‘JA O‘G‘LI MAMLAKATIMIZ TARIXI VA JADIDLAR MEROSI BILAN BOG‘LIQ NOYOB HUIJATLARNI TAQDIM ETDI



90 yoshida Turkiyada vafot etgan so‘nggi o‘zbek jadingi Usmonxo‘janing farzandi Temur Xo‘ja o‘g‘li butun umri va kuchini turkiy xalqlar madaniyati va tarixi borasidagi izlanishlarga baxshida etgan. U turkiy xalqlar olami, Markaziy Osiyo madaniyati tarixi, jadidchilik, sho‘ro davri va mustaqillikdan keyin Markaziy Osiyo respublikalarida kechayotgan siyosiy o‘zgarishlar mavzularida tinimsiz izlanayotgan fidokor olimlardan biri.

Davomi 6-betda

## OLIV TA‘LIM

### KALQARO REYTINGLARDAGI MAVQE

universitetlar faoliyati samaradorligidan darak

Hozir o‘qitish tizimini yuqori sifatga olib chiqish, oliy ta‘lim muassasalarini xalqaro darajada tanitish, raqobatbardoshligini ta‘minlash asosiy vazifalardan. Uni bajarish yo‘lida OTMLar barcha imkoniyatdan samarali foydalanib, xalqaro hamkorlik aloqalarini kengaytirmoqda.

Davomi 5-betda



## O'ZBEKISTON STRATEGIYASI 2030

## INSON VA TABIAT MUVOZANATIGA ASOSLANGAN TIZIM



Furqat YUNUSOV,  
"Taraqqiyot strategiyasi"  
markazi bo'lim boshlig'i

Boshlanishi 1-betda

Bunday iqtisodiyotga o'tish uchun mikroiqisodiy xatti-harakatlar, siyosat va qadriyatlarimizni o'zgartirish lozim bo'ladi.

Shuni e'tiborliki, bu borada mamlakatimiz global, mintaqaviy va milliy miqyosda muhim tashabbus va g'oyalarni ilgari surmoqda. Shu bilan birga, kambag'allikni kamaytirish, aholi turmush sifatini yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan BMT barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. Bu borada 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar

strategiyasi qabul qilindi. Uning doirasida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi.

Bu islohotlar qayta tiklanuvchi energiya manbalari va infratuzilmani rivojlantirishdan tortib, ta'lim va innovatsiyalargacha bo'lgan turli sohalarini qamrab oldi. Bunday keng qamrovli chora-tadbirlar O'zbekiston iqtisodiyoti uchun mustahkam poydevor yaratish va uning atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan muhim hisoblanadi. Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida esa iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, valyuta bozorini yanada liberallashtirish, soliq tizimini isloh qilish, xususiy sektorni rivojlantirish, energiya resurslaridan foydalanishda samaradorlikni oshirish, infratuzilma va ijtimoiy sohani yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

Mazkur strategiyalar doirasida o'tgan 7 yil davomida qator ijobiy natijalarga erishildi. Jumladan, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichi 17,6 foizga o'sib, 2017-yildagi 1916 dollardan 2022-yilda 2255 dollarga yetdi. Kambag'allik chegarasi (minimal iste'mol xarajatlari) joriy etildi va kambag'allik darajasi 2021-yildagi 17 foizlik ko'rsatkichdan 2022-yilda 14 foizga tushdi. 2022-yilda mamlakatimizga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 11 foizga oshib, rekord daraja — 2,5 milliard dollarga yetdi.

Iste'mol va ishlab chiqarishning oqilona modellariga o'tishni ta'minlash maqsadida chiqindilarni qayta ishlash

hajmi 2017-yildagi 631 ming tonnadan 2200 tonnaga oshdi. Maishiy chiqindilarni qayta ishlash ulushi 2017-yildagi 22 foizdan 2022-yilda 26 foizga oshdi. O'rmonlar maydoni O'zbekistonning umumiy yer maydoniga nisbatan 7 yil ichida 8,3 foizdan 8,7 foizga, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ulushi 2 barabar oshdi.

Joriy yilda qabul qilingan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida esa jahon tendensiyalari va intilishlariga mos keladigan uzoq muddatli istiqbolgar belgilab berildi. Unga asosan aholi jon boshiga YAIM ko'rsatkichini 4000 dollarga yetkazish, inflyatsiya darajasini 5-6 foiz, davlat byudjeti taqchilligini YIMga nisbatan 3 foizga kamaytirish, iqtisodiyotda xususiy sektorning ulushini 85 foizga oshirish, sanoatda ishlab chiqariladigan texnologik mahsulotlar ulushini 25 foizdan 32 foizga yetkazish kabi muhim chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

Ushbu strategiya orqali O'zbekiston barqaror rivojlanish, innovatsiyalarni rag'batlantirish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishda yetakchi o'rinni egallashga qaratilgan ulkan maqsadlarini o'z oldiga qo'ydi. Mazkur strategiyadagi diqqatga molik islohotlardan biri qayta tiklanadigan energiya manbalari-ga e'tibor qaratilganidir. O'zbekiston qazib chiqariladigan yoqilg'iga qaramlikni kamaytirish va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish muhimligini inobatga olgan holda qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish bo'yicha o'z oldiga katta maqsadlar qo'ydi.

Shuningdek, asosiy istiqbolli chora-tadbirlardan biri O'zbekiston chiziqi

iqisodiy modeldan resurslardan samarali foydalaniladigan, chiqindilarni minimallashtiradigan aylanma modelga o'tishga intilmoqda. Bunday yondashuv nafaqat tabiiy resurslarga bosimni kamaytiradi, balki yangi ishlab chiqarish-

lar va ish o'rnlari istiqbollarni yaratish orqali iqtisodiy imkoniyatlarni ochib beradi.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida tabiiy resurslarni saqlash va barqaror boshqarishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu boradagi chora-tadbirlar qo'riqlanadigan hududlarni tashkil etish, barqaror o'rmon xo'jaligi amaliyotini qo'llash va biologik xilma-xillik nuqtalarini saqlashni o'z ichiga oladi. Bu harakatlar O'zbekiston tabiiy merosining uzoq muddatli hayotiylikni ta'minlab, iqtisodiy o'sish va atrof-muhit muhofazasi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, O'zbekistonda barqaror iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashish uchun xalqaro hamkorlik va shiriklikni mustahkamlash maqsad qilingan. Jahon tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, ilg'or tajribalarni almashish va xalqaro tashabbuslarda ishtirok etish orqali barqaror rivojlanish bo'yicha global munozaraga o'z hissasini qo'shish va bilim almashinuvi, texnologiyalar transferi imkoniyatlaridan foydalanish rejalashtirilgan.

Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston global tahliklar sharoitida barqaror rivojlanish muhimligini anglagan holda insoniyat va atrof-muhitning umumiy merosiga asoslangan iqtisodiyotni faol rivojlantirmoqda. Avvalgi strategiyalar doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida belgilangan istiqbolga mo'ljallangan chora-tadbirlar mamlakatimizning barqaror iqtisodiyotini barpo qilish yo'lidagi dadil qadamlarini namoyon etadi.

## ISLOHOT ODIMLARI

## ENERGETIKA RIVOJI ODAMLAR QALBIGA HAM YORUG'LIK, NUR OLIB KIRMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Bundan uch yil avval To'palang elektr generatsiyasi bor-yo'g'i 30 megavattni tashkil qilardi. Sohaga jalb etilgan 165 million dollar investitsiya evaziga "To'palang" GESi modernizatsiya qilindi, "Zarchob-1" va "Zarchob-2" GESlari ishga tushirildi. Natijada To'palang daryosi manbasi orqali olinayotgan elektr quvvati 251 megavattga yetdi. Shu tariqa "To'palang" GESi "Chorvod" GESidan keyin mamlakatimizdagi ikkinchi yirik stansiyaga aylandi. Bu yerda yiliga qo'shimcha 467 million kilovatt-soat elektr quvvati ishlab chiqarilayapti. Bugunga kelib, qariyb 167 mingta xonadonning elektr ta'minoti yaxshilandi. Bu yiliga o'rtacha 107 million kub metr tabiiy gaz tejalandi, deganidir. Yaqinda yana bir kichik "Zarchob-3" GESi qurilishi boshlandi.

Shuni ham aytish kerakki, ayni kunlarda Birlashgan Arab Amirliklarining "Masdar" kompaniyasi tomonidan Sherobod tumanida amalga oshirilayotgan yirik loyiha asosida 500 megavattga teng quyosh elektr stansiyasi qurilmoqda. Shuningdek, "Surxon" nimstansiyasiga ulanish uchun 52 kilometrli elektr



uzatish tarmog'i barpo etilyapti. Stanziyaning yillik ishlab chiqarish quvvati 1,04 milliard kilovatt-soatni tashkil etadi. Buning natijasida yiliga 340 million kub metr tabiiy gaz tejalandi, 300 mingta xonadon elektr energiyasi bilan ta'minlanadi.

Bundan tashqari, viloyatda ijtimoiy soha va davlat idoralari 684 obyektiga 12,779 megavatt, tadbirkorlarning 731 bino va inshootiga 9,373 megavatt, 2800 dan ziyod aholi xonadoniga 7,718 megavatt, shuningdek, 6 ta ko'p qavatli uy to'miga 0,073 megavatt quvvatga ega quyosh panellari o'rnatildi.

Sohaga xususiy sektor — tadbirkorlik subyektlari faol jalb etilib, ular tomonidan mikro GESlar qurishga keng imkoniyat berilmoqda. Buning uchun huquqiy, iqtisodiy sharoitlar yaratilgan. Jumladan, kichik va mikro GESlar qurish istagidagi tadbirkorlarga yerlarni 20 yil muddatga ijaraga berish, ular ishlab chiqargan elektrni davlat tomonidan kafolatli sotib olish tizimi joriy qilingan. Bu esa energetika tarmog'ini isloh qilish va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etayotir.

Prezidentimizning 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejoychiligi

texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, Qiziriq tumanining Yangi kent, Zarbdor va Takiya mahallalari hududlaridan o'tgan kollektorlarda jami quvvati 1 megavatt bo'lgan 3 ta mikro GES qurish ishlari amalga oshirilmog'ida.

Bularning bari elektr energiyasi ta'minotini yaxshilashga xizmat qilayotgan bo'lsa, "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Surxondaryo filiali tomonidan ulzüksiz va barqaror elektr energiyasi yetkazib berish, buning uchun tarmoqni moddiy-texnik jihatdan yangilash ishlari olib borilyapti. Bu boradagi amaliy ishlarni qiyosiy raqamlarda ham yaqqol ko'rish mumkin. Agar 1991-2016-yillar mombaynida viloyat hududida 490 kilometr past kuchlanishli elektr tarmog'i va 316 transformator punktida qurilish-montaj ishlari amalga oshirilgan bo'lsa, 2017-2023-yillarda 4261 kilometr yangi havo elektr uzatish tarmog'i qurildi, 1316 ta turli quvvatdagi yangi transformator o'rnatildi.

Davlatimiz rahbari raisligida shu yil 31-oktyabr kuni bo'lib o'tgan videosektor yig'ilishida gidroenergetika sohasida olib borilayotgan islohotlar tahlil etilishi barobarida tizimdagi bir qator kamchiliklar ko'rsatib o'tilgan edi. Viloyatda bu

kamchiliklarni bartaraf etish uchun 4 ta yo'nalish bo'yicha, ya'ni iste'molchilarga ASKUE tizimiga mos holda ishlay oladigan elektr hisoblagichlar o'rnatish, elektr tarmoqlarida olib borilayotgan qurilish ishlari jadallashtirish, qazidor iste'molchilar bilan ishlash hamda kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish vazifalari belgilab olindi.

— Energetika tarmoqlarida iste'mol madaniyatini oshirish, resurslardan foydalanish sohasida maqsadli undiruv, nazorat va o'rganish tadbirlari muntazam ravishda amalga oshirilmog'ida, — deydi "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ Surxondaryo filiali axborot xizmati rahbari Azimbek Samadov. — Joriy yil noyabr oyida prokuratura organlari bilan hamkorlikda o'tkazilgan tadbirlarda energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish bilan bog'liq jami 158 holat aniqlangan. Natijada 2 ta jinoyat ishi qo'zg'atildi, 403 ta ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi. Elektr energiyasidan qazidorligi mavjud bo'lgan uchun 10 ming 175 iste'molchi tarmoqdan uzilib, 19,6 milliard so'm debitor qarzdorlik undirildi. 11 ming 704 ta yangi hisoblagich o'rnatilib, ASKUE tarmog'iga ulandi. Tizimdagi mavjud 26 ming 361 ta aloqaga chiqmagan elektr hisoblagichlarni aloqaga chiqarish uchun 10 ming 654 ta GPRS moduli, 1300 ta konsentratör qurilmasi o'rnatildi.

Darhaqiqat, sohada olib borilayotgan izchil islohotlar yangi energiya resurslarini yaratish barobarida xalq xo'jaligini yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, "Yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish, istiqbolli loyihalarni amalga oshirish, ijtimoiy va iqtisodiyot inshootlarini ulzüksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash imkonini berayotir. Eng muhimi, sohadagi tub o'zgarishlar odamlar kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, xonadonlarga fayz-u baraka, kishilar qalbiga yorug'lik, nur olib kirmog'ida.

Ilhom RAHMATOV,  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



## BUNYODKORLIK

## TINCHLIK VA HAMJIHATLIK BOR JOYDA FAROVONLIK BO'LADI

Mamlakatimizda "Inson qadri uchun" degan xalqparvar g'oya bugun barcha islohotlarimiz samarasida, aholining turmush tarzida o'z ifodasini topmoqda. Xalqimizning ertangi kunga ishonchi mustahkamlanmoqda. Nafaqat shaharlar, balki qishloqlar ham zamonaviy qiyofa kasb etib, tobora obod va ko'rkam bo'lib bormog'ida.

Davlatimiz rahbari qishloq va mahallalarni obod qilish masalasida 2018-yili o'tkazgan yig'ilishida "Xarob va fayzi yo'q joyda yashayotgan aholining kayfiyati ham, kelajakka intilishi ham bo'lmaydi. Ikkinchi tomondan, ular ham fuqarolarimiz, nima uchun ular sharoit yo'q joyda yashashi kerak? Biz qishloqlarni obod qilsak, u yerda qalqning kayfiyati o'zgaradi, ularda o'z hayotini yanada yaxshilashga intilish paydo bo'ladi, qishloqlar iqtisodiy o'sadi. Buning natijasida Vatanimiz obod bo'ladi va mamlakatimizning iqtisodiy yuksalishi uchun yana bir muhim turki bo'ladi", deb ta'kidlagan edi.

To'g'risi, Prezidentimizning ushbu so'zlarini qaydlar daftarimiga yozib qo'ygan edim. Agar bir-ikki yilda qishloqlarimizda o'zgarish bo'lmasa, ushbu so'zlarni asos qilib, tuman va viloyat mutasaddilariga murojaat qilish niyatim bor edi.

Bu orada mamlakatimizdagi barcha qishloqlarni bosqichma-bosqich obod qilishdek ulug'vor maqsad aks etgan "Obod qishloq" dasturi ishlab chiqildi. Dastur qishloqlarda yashayotgan barcha odamlarning ko'nglidagi gap bo'ldi, desam mubolaga emas. E'tiborlisi, ushbu ish Jizzax viloyatining Do'stlik tumani Manas qishlog'idan boshlandi. Manas xalqi bilan bordi-keldimiz bor. Quda-anda bo'lganmiz. Ular qirg'iz, biz tojik. Aslida, bu ham ko'p millatli O'zbekiston xalqining o'zaro do'stligi, birdamligining yorqin bir nishonasi, bu boradagi davlatimiz siyosatining samarasi hisoblanadi. Manasdagi o'zgarishlarni ko'rib, to'g'risi, bizning qishloqlarimiz ham shunday obod bo'lsin, deb havas qilganman. Tegirmon navbati bilan deganlaridek, 2021-yili qishlog'imiz "Obod qishloq" dasturiga kiritildi. Shu o'rinda qishlog'imiz haqida ikki og'iz so'z aytсам.

Ushbu yo'lning faqat 3 kilometri "Obod qishloq" davlat dasturi doirasida asfalt qilingan, qolgan uydim-chuqur tuproq yo'llardan iborat edi. To'g'risi, o'zimiz-ku bu yo'larga moslashib qolgan edik, ammo xorijlik sayyohlar oldida xijolat bo'lardik.

Bu borada davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan "Ochiq budget" tanlovi bizga qo'l keldi. Joriy yilning o'zida ikki marta mahallamiz yo'lini asfaltlash loyihasini tanlovga qo'ydik. Ikki marta ham g'olib bo'ldik. Ichki yo'llar ham qariyb 90 foiz asfaltlandi. Odamlar bundan benihoya xursand. Ayniqsa, qishlog'imiz yuqorisida yashaydigan aholining shodligini so'z bilan ifodalash qiyin. Zero, asfalt yo'qligi, yo'llarning tor va notekisligi sabab, avtobus yuqori mahallaga chiqmasdi. Odamlar shaharga bormoqchi bo'lsa, ayniqsa, qahraton qishda, soat tungi uchlarda uyidan chiqib, 5-6 kilometr yo'l bosib, pastki qishloqqa kelardi. Shahardan qaytishda ham shu ahvol edi. Bugun yo'llar kengaygani va asfaltlangani bois, avtobuslar yuqori mahallaga ham chiqaypti. To'g'risi, shu paytga qadar qishlog'imiz yo'llarining asfalt qilinishini hatto tasavvur ham qilolmasdik. Ayni paytda esa qishlog'imizdagi eski elektr simyog'ochlari yangi beton ustunlarga almashirilmog'ida. Demak, elektr bilan bog'liq muammomiz ham hal bo'ladi, hisob.

Bugun qishlog'imizning nuroniy otaxonlarini duog'o'y onaxonlari ushbu ishlarning tashabbuskorlarini, mutasaddilarni duo qilmoqda. Ha, xalqimiz kelajakda emas, hozir yaxshi yashashi kerak, degan maqsad bugun amalga ko'chmoqda. Xalqimizning turmush sharoiti, yashash tarzi yaxshilanmoqda. Shahar-u qishloqlarimiz birdek obod bo'lmoqda.

Muammolar ham asta-sekin hal etilmog'ida. Bu borada joylarda



O'xum — Forish tumanining eng so'lim va qadimiy manzillaridan biri. Qishlog'imiz Nurota tizma tog'lariga bag'rida joylashgan. Uchta o'rta ta'lim maktabi, bitta maktabgacha ta'lim tashkiloti, bitta qishloq shifokorlik punkti, tez tibbiy yordam bo'limi xalq xizmatida. Qishlog'imiz o'zining toza havosi, betakror tabiati, noyob hayvonot va nabotot olami, qadimiy maskanlari, tog'laridagi petrogliflari, shifobaxsh buloq suvlari bilan nafaqat mahalliy, balki xorijlik sayyohlarni ham o'ziga jalb etmoqda. Har yili qishlog'imizga mahalliy sayyohlardan tashqari, minglab xorijlik mehmonlar ham tashrif buyuradi. Ularni qishlog'imizning diqqatga sazovor joylarini tomasha qilish, betakror tabiat, sharqiroq O'xumsoy qo'nyida dam olishi barobarida, mahalliy aholining turmush sharoiti, yashash tarzi, urf-odat va an'analari ham qiziqtiradi. O'zim bir necha bor xorijlik mehmonlar bilan suhbatlashganman. Ularga ko'proq xalqimizning mehmondo'stligi, samimiyligi, to'yli ma'qul bo'larkan. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga, xususan, millatlararo munosabatlarga yuqori baho berishadi.

O'tgan yili O'xumga turizm qishlog'i maqomi berildi. Ushbu maqom sharoifi bilan qishlog'imiz yanada obod bo'ladi. Bugun turizm sabab o'nab qishloqdoshlarimiz doimiy daromad manbaiga ega.

Forish — Nurota yo'lidagi qishlog'imizga cha qariyb 18 kilometrli ichki yo'l mavjud.

o'tkazilayotgan sayyor qabullar, aholi bilan yuzma-yuz uchrashuvlar o'z samarasini bermog'ida. Shunday sayyor qabullar sharoifi bilan qishlog'imiz sifati mobil aloqa bilan ta'minlandi. Bugun uyimda turib, uzodagi bolalarim, nevaralarim va shogirdlarim bilan bemalol gaplashaman.

Yoshim 85 dan oshdi. Bir umr ta'lim sohasida ishladim. Uzoq yillar maktabda direktor bo'lganman. Hozirgi ta'lim tizimida olib borilayotgan ishlarga havas qilaman. Kim o'z ustida ishlasa, harakat qilsa, yuqori maosh olayotganini ko'rib turibmiz. Tez-tez maktablarga borib turaman, o'quvchilar, o'quvchilar bilan suhbatlashaman. O'quvchilarning bilimi, dunyoqarashi keng. Yurtimiz yoshlarining xalqaro maydonlarda erishayotgan yutuqlarini ko'rib sevinaman. Bu aziz yurtimizning kelajagi ishonchli qo'llarda ekanidan dalolat.

Hozir tahlikali zamonda yashayapmiz. Jahon va yon-atrofimizda kuchayib borayotgan turli xavf-xatarlardan to'g'ri xulosa chiqarish va yurtimiz obodligi, xalqimiz farovonligi yo'lida sidqidildan mehnat qilishimiz zarur. Zero, tinchlik, birdamlik bo'lsa, barcha muammolarga yechim topsa bo'ladi.

Esonbek POLVONOV,  
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi

Forish tumani




**NUQTAYI NAZAR**

# PAXTACHILIK —

## QO'SHILGAN QIYMAT YARATISHDA ULKAN SALOHİYATGA EGA TARMOQ



**Ibrohim ABDURAHMONOV,**  
qishloq xo'jaligi vaziri,  
akademik

Boshlanishi 1-betda

Dunyodagi bugungi ziddiyatlar, savdodagi cheklovlar iqtisodiyotda ham o'z aksini topmoqda. Oziq-ovqat va to'qimachilik eksportiga mazkur omillar salbiy ta'sir qildi. Teran o'ylab qarasa, bunday vaziyatda qishloq xo'jaligida hosildorlikni keskin oshirish hisobiga tannarxni kamaytirish, chuqur qayta ishlash va qo'shilgan qiymat yaratishga ko'proq investitsiya jalb qilib, eksportni ko'paytirish eng to'g'ri yo'l ekan ayon bo'ladi. Aynan mana shu sabablar inobatga olinib, Prezidentimiz raisligida joriy yil 9-noyabr kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida qishloq xo'jaligini yangicha yondashuvlar, tashkiliy va moliyaviy vositalar orqali qo'llab-quvvatlash choralarini muhokama qilindi. Xususan, bu yil 41 ta paxta-to'qimachilik klasterida hosildorlik 40 sentnerdan oshgan bo'lsa, 9 tasida 30 sentnerdan kam bo'lgani bois paxta urug'chiligi bo'yicha yangicha yondashuvlarni qo'llash zarurligi ta'kidlangandi.



### Bozordagi narxlar muvozanatini ta'minlashda muhim jihat

Davlatimiz rahbari huzurida shu yil 12-dekabr kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda ushbu topshiriqlarga muvofiq ishlab chiqilgan takliflar, paxta xom-ashyosini yetishtirish tizimini yanada takomillashtirish masalalari muhokama qilindi.

Shunga ko'ra, 2024-yil hosildan boshlab paxta xom-ashyosini yetishtiruvchilar va paxta-to'qimachilik klasterlari o'rtasida munosabatlar yangi tartibda tashkil etiladi. Ya'ni chigit ekilishidan avval (har yili 1-noyabrgacha, 2023-yildan 2024-yil 1-fevralgacha), fermer xo'jaliklari va viloyat ichidagi klaster o'rtasida tuproq hosildorligi normativlari doirasida fyuchers shartnomalari Tovar-xomashyo birjasining paxta xom-ashyosi seksiyasida har bir hudud uchun o'tkaziladigan savdolar orqali tuziladi.

Bunday yondashuvning afzalligi shundaki, fermer o'zi yetishtiradigan paxtaning miqdorini birjaga joylashtiradi hamda viloyat ichida balandroq narx taklif etgan klaster bilan shartnoma tuzadi. Bu miqdor o'z mehnatiga yarasha manfaat ko'radi, degandir. O'z o'rnida, hosilni ko'paytirish uchun zarur agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishga bo'lgan ishtiyogi ham ortadi.

Yana bir ahamiyatli jihati fyuchers shartnomadan ortiqcha hajmda yetishtirilgan paxta xomashyosi yoki undan olinadigan birlamchi va ikkilamchi

## Unga bozor munosabatlarining tatbiq etilishi yuqori natijadorlikni ta'minlaydi

mahsulotlarni fermer xo'jaliklari to'g'ridan-to'g'ri fyuchers shartnoma tuzgan klasterga yoki birja orqali istalgan subyektaga sotishidir. Bu kabi imkoniyatlar erkin bozor munosabatlari namoyon bo'lishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish sharoitida birja savdosini yanada rivojlantirishning zarur bosqichlaridan biri derivativ moliyaviy vositalarni qo'llash hisoblanadi. Bunda fyuchers shartnomalarni joriy etish eng maqbul yo'l. Bu narxlarning keskin o'zgarishiga moyil bo'lgan tovar bozorlari uchun alohida ahamiyatga ega. Fyucherslar orqali xavflarni muvaffaqiyatli boshqarish



**2024-YIL 1-YANVARDAN BOSHLAB PAXTA XOM-ASHYOSI YETISHTIRUVCHILARNI UZLUKSIZ MODDIY RESURLAR BILAN TA'MINLASH MAQSADIDA TOVAR-XOMASHYO BIRJALARIDA 0,2 VA 0,5 TONNALI KICHIK LOTLARDAMINERAL O'G'ITLAR, YOQILG'I-MOYLASH MATERIALLARI BARCHA HUDUDLAR BO'YICHA DOIMIIY SAVDOLARGA QO'YILISHI TA'MINLANADI.**

va iqtisodiyotga ko'proq bo'sh mablag' jalb qilish, bozordagi narxlar muvozanatini ta'minlash mumkin. Qolaversa, birja bitimlari bajarilishini kafolatlaydi.

### Kafolatlangan xaridor

Birinci navbatda, fermerlar fyuchers shartnoma tuzish orqali yetishtiriladigan

kutilgan hosilni ololmaymiz. Buning sababi shundaki, chet eldan olib kelingan paxta urug'i 220-270 kunda hosilga kiradi. Ammo bizning ob-havomiz sharoitida bu muddat juda uzoq. Agar fermer dalasiga import hisobiga keltirilgan navni to'g'ridan-to'g'ri eksa, odatdagi kabi sentyabr oyida hosil ololmaydi. Urug'chilik ilmidan xabarador bo'lmasa, bu ekinga umuman hosil bermaydigan nav, degan xulosani berishi ham mumkin. O'z o'rnida, hosil muddati kechikkan sari tola sifati tushib, massasi yo'qolib boraveradi. Demak, oddiy dehqonchilikka ham ilm bilan yondashish kerak. Shundaygina kutilgan natijaga erisha bo'ladi.

Shu jihatlarni inobatga olgan holda, endi yerni tayyorlashdan boshlab, paxta xom-ashyosini yig'ilib terilgunga qadar agrotexnik tadbirlarning amalga oshirilishi jarayoni Qishloq xo'jaligi vazirligi va uning huzuridagi O'zagroinspeksiya tomonidan amaldagi tartibga binoan monitoring qilinadi.

Dehqon va fermerlar uchun qancha qulaylik yaratilsa, ularni qiynayotgan muammolar ham etilsa, hosildorlik shuncha yuqori bo'ladi. Davlatning ham paxta yetishtirishdan oladigan daromadi oshadi.

2024-yil 1-yanvardan boshlab paxta xomashyosi yetishtiruvchilarni uzluksiz moddiy resurslar bilan ta'minlash maqsadida Tovar-xomashyo birjalarida 0,2 va 0,5 tonnali kichik lotlarda mineral o'g'itlar, yoqilg'i-moylash materiallari barcha hududlar bo'yicha doimiy savdolariga qo'yilishi ta'minlanadi.

### Ishlab chiqarish zanjirini to'liq nazorat qilish imkoniyati yaratiladi

Yig'ilishda klasterlar va boshqa korxonalar tomonidan paxta xomashyosi faqat elektron tarozi orqali qabul qilinishi hamda paxta tolasini avtomatlashtirilgan hisobga olish tizimi joriy qilinishi belgilandi. Bunday yondashuvning klasterlar uchun afzalliklari nimada, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Soddaroq aytganda, avvalo, eskirgan va ishonchsiz tizim, qayd etish kitoblariga ma'lumotlarni qo'lda kiritishga barham berilib, real vaqt rejimida hisobotlarni olish yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, paxta to'plamiga ishchilarning xatosi bilan bo'yoqlarda raqam kiritilishi o'rni qo'ldan qo'yiladi. Anglaganizdek, ma'lumotlar shaffofligi ta'minlanishi ortidan turli noqonuniy holatlarga barham beriladi. Paxtani chuqur qayta ishlashning keyingi bosqichlarida esa ushbu tizim integratsiya qilinib, ishlab chiqarish zanjirini to'liq nazorat qilish mumkin bo'ladi.

Tizim orqali xorijiy hamkor va xaridorlarga har bir to'plamdagi paxtaning navi, sifati, aniq miqdori va ishlab chiqaruvchining ma'lumotini olish imkoniyati yaratiladi. Real vaqt rejimida gadgetlar va kompyuterlarda amalga oshirilayotgan barcha jarayon to'plami, markasi va boshqa statistik ma'lumotlarni ko'rib turish mumkin. Tizimda klasterlar talabidan kelib chiqib, ma'lumotlar guruhlar va sanalarga filtrlanadi hamda qo'shimcha funksiyalar qo'shiladi. Hozir respublikamizning 60 foiz paxta tozalash korxonalariga ushbu tizim o'rnatilmoqda.

Yangi navlar bilan bog'liq ishlar, ularni turli sharoitda sinash hamda ishlab chiqarishga tatbiq qilish bo'yig'ining muhim vazifasidir. Shu bois, olimlar oldida o'simliklarning qiymatli xo'jalik belgilariga javobgar genlarini xaritalashda dolzarb bo'lgan populyatsiyalarni yaratish, xorijdan keltirilgan navlarni mahalliy sharoitga moslashtirishdek muhim masala turibdi.

Davlatimiz rahbarining tegishli qarorida kelgusi yildan paxta ekiladigan maydonlarning 10 foiziga tajribasiz va qator xususiyatlari mato sifatida joylashtirishga ruxsat berish nazarda tutilgan. Tajriba tariqasida 14 ta tumanning ball boniteti past, suv ta'minoti og'ir hududlarida yuqori hosildor mahalliy va xorijiy navlarni joylashtirish rejallashtirilmoqda.

### Serhosil navlar yaratish — dolzarb masala

Oxirgi yillarda iqlim o'zgarishi, ayniqsa, kun va tunda harorat o'rtasidagi tafovut yo'qolib borayotgani hisobiga paxtachilikda hosildorlik tushib ketgan. Orol dengizi bilan bog'liq muammolar kuzatilgan vaqtlarda, tog'larda muzliklar ko'p paytlarda kunduzi havo qanchalik isisa ham kechasi salqin bo'lgan. Paxta guli yuqori haroratga chidamsiz. Anomal issiq, kechqurun havoning sovimasligi sabab gul yetila olmaydi, ya'ni ko'sakka aylanmaydi. Turkiya, Gretsiya kabi davlatlarda mana shu tungi harorat kutilgan darajada bo'ladi. Shuning uchun yuqori hosil olinadi. Hozir kuzatilayotgan ob-havo sharoitidan kelib chiqib, biz o'lkamiz iqlim sharoitiga javob bera oladigan nav yaratishimiz, amaliyotga joriy etishimiz zarur.

Shu o'rinda yana bir tahlilni keltirsak. Dunyo amaliyotida hosildorlik tola miqdori bilan o'lchanadi. Turkiya gektaridan bir yarim ming kilogramm tola olsa, bizda 800 kilogramm, ya'ni 100 kilogramm paxtadan

33 kilogramm tola ajratib olinadi. Demak, mana shu ko'rsatkichni o'zgartirish uchun ham bizga tola sifati yuqori, iqlimimizga mos navlar kerak. Sohaga yangicha ilmiy yondashuvlar zarur. Turkiyadan o'zlashtirishimiz zarur bo'lgan texnologiya ham shu — chigitning massasi kam, tolaniki yuqori bo'lishiga erishish. Paxtachilikda yetakchi davlatlarda mana shu amaliyot yo'lga qo'yilgan.

Yangi navlar masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Bugun soha mutaxassislari oldida yer va suvdan unumli foydalanish barobarida vaqtni ham tejashdek muhim masala turibdi. Biologik eskirgan navlardan foydalansak, iqlim bilan bog'liq o'zgarishlar va zararkunandalardan cho'chimiz. Shuningdek, an'anaviy usulda hosilni baholash uchun mavsum oxirida xulosa bera olsak, yangi uslub bilan urug'lik mahsulodorigini aniqlashga ikki kun yetarli bo'ladi.

Bir jihatni unutmasimiz kerak: hosil biz kutgandek bo'lsa ham, aks natijani ko'rsatsa ham aholining oziq-ovqatga, sanoatning esa xom-ashyoga talabi oshib boraveradi. Demak, turli tabiiy ofatlar, kasallik va zararkunandalarga bardoshi ekin turlarini ko'paytirish bugun dolzarb masalasi. 2024-yildan boshlab 30 sentnerdan past hosil berayotgan navlar muntazam aniqlanib, serhosil mahalliy va xorijiy navlarga almashtirib borish amaliyoti joriy qilinadi.

Xorijdan olib kiriladigan paxta navlari shunchaki fermer dalasiga ekilib, keyingi taqdiri e'tiborsiz qoldirilmaydi. Yig'ilishda ta'kidlanganidek, buning uchun alohida agrotexnika va soddalashtirilgan karantin



talablari joriy etilib, maxsus karantin kuzatuvida va Paxtachilik kengashi ilmiy ko'rsatmasi asosida ish olib boriladi.

### Mato sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omil

Bir jihatni e'tibordan chetda qoldirmasimiz kerak, yangi sanoatdagi texnologik o'zgarishlar tola sifatiga yangidan-yangi talablarni qo'yadi. Mana shu mezonlarga javob berish uchun ham yangi navlar zarur. Paxta tolasining uzunligi, pishiqliqi, bir xil tuzilishda ekani va boshqa qator xususiyatlari mato sifatiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan. Xalqaro amaliyotda hududlarning tuproq-iqlim sharoitini chuqur o'rganish hamda, ilm-fanning ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanib, ekin turlarini mahalliyashtirish, o'rinni joylashtirish, zamonaviy agrotexnologiyalarni keng tatbiq etish yuqori natijadorlikka erishishning yagona yo'li hisoblanadi.

Joriy yilda Paxtachilik kengashining ilmiy xulosasiga asoslanib, yangi va istiqbolli navlar 14 ta tumanga joylashtirildi. Kelgusida hosildorligi yuqori, kasallik va zararkunandalarga chidamli, tola sifati hamda tola chiqimi yuqori, hudud iqlim sharoitiga to'g'ri kelgan intensiv navlarni ko'paytirish rejallashtirilgan. Shuningdek, 2024-2027-yillarda an'anaviy va no'an'anaviy seleksiya usullari orqali yuqori hosildor, tez pishar, tola sifati yuqori, kasallik va hasharotlarga chidamli biotexnologik navlar yaratiladi.

Yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish barobarida aholining oziq-ovqat mahsulotlari va iqtisodiyot tarmoqlarining xomashyoga talabini qondirish uchun ham bizga kelajagi kafolatlangan mahsuldor o'simliklar kerak.

Klaster va fermerlar dalaga yangi navni kiritdimi, undan o'zlari ham manfaatdor ekanini, katta foyda olishi mumkinligini anglashi kerak. Ayni shu jihatlarni e'tiborga olingan holda, mahalliy istiqbolli g'oz va navlarini ko'paytirish, uning sifati elita urug'chiligi yo'lga qo'yish hamda navni tijoratlashtirishda klaster va fermerlarga tegishli navga hammualliflik qilishga ruxsat beriladi. Ya'ni sertifikatlangan urug'lik tayyorlash bosqichma-bosqich klasterlar va xususiy urug'chilik korxonalariga o'tkaziladi.

Ishlab chiqarilayotgan va import qilinadigan GMO mahsulotlar xavfsizligini baholash, shuningdek, bu turdagi mahsulotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish ahamiyatli jihat. Boisi, oziq-ovqat ta'minoti qanchalik muhim bo'lsa, xavfsizligi ham shunchalik muhim.

Yig'ilishda ko'rib chiqilgan yana bir masala mamlakatimizda genetik modifikatsiyalangan organizmlar va ularning mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha ilmiy ekspertizasini joriy qilish hamda genetik modifikatsiyalangan navlar milliy bazasini shakllantirishdir.

GMO o'simliklarning davlat yo'yxatidan o'tkazilishini tartibga solish mexanizmi bunday o'simliklarni atrof-muhitga chiqarish yoki xalq xo'jaligida foydalanishni tartibga solish imkonini beradi.

### Tola uzunligi 33-34 millimetr

O'zbek paxtasiga talab hamisha yuqori bo'lgan. Sababi, yurtimizda yetishtirilgan paxtada tola uzunligi 33-34 millimetr





TAHLIL VA TAQQOS

GLOBAL MIQYOSDAGI MEZONLAR

O'zbekistonning jahonda tutgan o'rnini va nufuziga qanday baho beryapti?



Abdurauf QORJOV, iqtisodiy sharhlovchi

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimizning 2020-yil 2-iyunda...

Hujjatga ko'ra, xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi tashkil etildi...

Keyingi yillarning muhtasab natijalari

So'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar tufayli O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi natijalari sezilarli darajada yaxshilanib bormoqda...



indexlar bilan ishlash bo'yicha respublika kengashi taqdim etgan ma'lumotlar ham tasdiqlaydi...

Xususan, BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish reytingida O'zbekiston 2014-yilda 100-pog'onada turgan bo'lsa...

2022-yilda 193 davlat orasida 69-o'rnini egalladi. Shu bilan eng katta pog'ona yuqorilgan mamlakatlar Top-10 taligidan joy olib...

Global innovatsion indeksda mamlakatimiz 2014-yildagi 128-o'rindan 2022-yilga kelib, 82-o'ringa ko'tarildi. Joriy yilda ham ushbu ko'rsatkich hamda 2022-yilda ilk bor erishilgan innovatsiyalarini jadal rivojlantirayotgan davlat maqomini saqlab qoldi...

BMT Taraqqiyot dasturining Inson kamoloti indeksida O'zbekiston 2022-yilda 191 mamlakat orasida 0,727 ko'rsatkich bilan 101-o'ringa yuqoriladi. So'nggi yillarda bu boradagi holatimiz 14 pog'onaga yaxshilangan.

Uch yillik tanaffusdan so'ng joriy yilda e'lon qilingan Jahon bankining Logistikta samaradorligi indeksida mamlakatimiz o'z ko'rsatkichlarini 11 pog'onaga yaxshilab, 138 mamlakat orasida 88-o'rinni qayd etdi.

"Chegara bilmas muxbirlar" nohukumat tashkilotining Matbuot erkinligi indeksida O'zbekiston 2022-yilga nisbatan 14 pog'ona yaxshiladi va 180 davlat orasida 126-o'ringa ko'tarildi. So'nggi yetti yilda esa 30 pog'ona yuqoriladi.

"Transparency International" xalqaro tashkilotining Korruptsiyani qabul qilish indeksida O'zbekiston o'z o'rnini 2022-yilga nisbatan 14 pog'ona yaxshiladi va 180 davlat orasida 126-o'ringa ko'tarildi. So'nggi yetti yilda esa 30 pog'ona yuqoriladi.

Huquq ustuvorligi indeksi (Rule of Law Index) O'zbekistonning barcha ko'rsatkichlar bo'yicha natijalari ko'tarilganidan dalolat beradi. Umumiy ro'yxatda mamlakatimiz 140 davlat orasida 78-o'rinni qayd etdi (2021-yilda 85-o'rin).

Ma'lumotlarda 2022-yilda huquq ustuvorligi bilan bog'liq vaziyat faqat 54 davlatda yaxshilangan, 85 tasida yomonlashib, bittasida o'zgarishsiz qolgan qayd etiladi. Ushbu indeksda O'zbekiston huquq ustuvorligi bilan bog'liq vaziyat yaxshilangan mamlakatlar qatoriga kiritildi.

Suveren kredit reytinglarida ham ijobiy tendensiyalar kuzatilib, "S&P" xalqaro reyting agentligi O'zbekiston kredit ko'rsatkichini "salbiy"dan "barqaror"ga, "Moody's" agentligi esa "barqaror"dan "ijobiy"ga o'zgartirdi.

Guliston davlat universiteti kafedra mudiri, iqtisodiy ekspert Akmal Abdurahimov izohicha, bu yaqin bir-bir yarim yil davomida ushbu ko'rsatkichning pasayishi ehtimoli kamligini bildiradi. O'zbekiston erishayotgan bunday reyting baholari ko'pgina rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan yuqori ekanini ta'kidlash lozim. Ushbu reyting agentligi O'zbekistonda valyuta, savdo va narx siyosati erkinlashgani, davlat boshqaruvidagi institutsional o'zgarishlar, mamlakat oltin-valyuta va byudjet zarixasi yetarli ekanini, davlat qarzi singiri omillarga alohida e'tibor qaratilganida...

Yaqinda mazkur agentlik 2023-yildagi O'zbekistonning xorijiy valyutadagi suveren kredit reytingini barqaror prognoz bilan "BB-" darajasida tasdiqladi. Bu davlat va tashqi qarz yukining oshishi haqidagi kutilmalarni ham o'z ichiga olgan.

Tadqiqotchilar tahlilicha, "S&P"ning reytingi shkalasi "AAA" dan "D" gacha bo'lib, "AAA" eng yuqori bahoni anglatadi, "D" davlat o'zining moliyaviy majburiyatlarini bajara olmasligini (defolt) bildiradi. Shkalaga qo'shimcha ravishda "AA"dan "SSS" gacha bo'lgan reytinglar oldida "+" yoki "-" belgilari ham ishlatiladi.

Reytingning kelgusidagi ehtimoliy yo'nalishi ham, o'z navbatida, ikki xil bo'lishi mumkin — kutilma (outlook) va nazorat ro'yxati (CreditWatch). Mamlakat bo'yicha



beriluvchi kutilma uning uzoq muddatli reytingi o'rta muddatda (odatda 6 oydan 2 yilgacha) qanday o'zgarishi mumkinligini ko'rsatadi.

Kutilma to'rt xil — "ijobiy" (reyting ko'tarilishi mumkin), "salbiy" (pasayishi mumkin), "barqaror" (o'zgarishsiz) va "rivojlanuvchi" (kelgusida reytingning ko'tarilishi yoki pasayishi noaniq) bo'ladi. Berilgan kutilma bo'yicha reytingning o'zgarishi ehtimoligi 1/3 ga teng. Demak, O'zbekistonning "barqaror"da turgani uning iqtisodiyotida ana shunga mos jarayonlar kuzatilayotganini aks ettiradi.

G'alvir suvdan ko'tarilganda...

Yangi yil yaqinlashmoqda. Hozirgi kunlar ayni sarhisob va istiqbol rejalarini belgilash davri. Xalqaro reyting agentliklari ham shunday kezlarda yoki yangi yil boshlarida o'z tahlil va xulosalarini e'lon qiladi. Ularga qarab, har bir mamlakatda yakuniga yetgan yil davomida erishilgan ijobiy va kuzatilgan salbiy natijalarga baho beriladi, jahonda tutgan o'rnini belgilanadi. Bu jarayonni soddaga qilib, g'alvir suvdan ko'tarilganda, degan iboraga davlat qarzi singiri omillarga alohida e'tibor qaratilganida...



Shu yil 11-sentabr kuni Prezidentimizning "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida "gi farmoni hamda "O'zbekiston — 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi.

Strategiyada belgilangan 100 ta maqsad BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unligi e'tiborga molik, — deydi Oliy Majlis Senati qo'mita raisi Malika Qodirxonova. — Barqaror rivojlanishning maqsadi keng miqyosli masalalar, ya'ni sog'liq va farovonlikdan tortib, to'qim o'zgarishlarigacha, gender tenglikdan tortib, iste'mol va ishlab chiqarish modellari yangilanishigacha bo'lgan jarayonni qamrab olgan.

Aytish o'rinliki, mamlakatimizda olib borilayotgan byudjet siyosatining 72,5 foizi BRMga yo'naltirilgan bo'lib, uning to'liq amalga oshirilishi uchun zarur investitsiya va texnologiyalar O'zbekistonga faol jalb etilmoqda, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari bilan ham yaqin hamkorlik aloqalari mustahkamlanmoqda.

Albatta, bu sa'y-harakatlar butun martaqada iqlim o'zgarishi, suv, energetika, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish, tinchlik, adolat va samarali boshqaruv, barqaror taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik masalalari ham Barqaror rivojlanish maqsadlari xalqaro reytingidagi o'rinni yuqori bosqichga ko'tarishga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, BMTning barqaror rivojlanish yechimlari tarmog'i va xalqaro ekspertlar tomonidan mamlakatimizning rivojlanish ko'rsatkichlari reytingi e'lon qilindi. Unga ko'ra, O'zbekiston 71,1 indeks bilan 166 mamlakat orasida 69-o'rinni egallab, 2022-yilga nisbatan 8 pog'ona ko'tarilgan.

2023-yilgi hisobotga ko'ra, yurtimizda barqaror rivojlanishning 10 ta maqsadi bo'yicha ko'rsatkichlarda ijobiy o'sish qayd etilgan. Ya'ni dastlabki o'rinlarda kambag'allikni qisqartirish, sog'liqni saqlash va farovonlikni ta'minlash, gender tenglikka erishish, sifatli ta'lim borasida amalga oshirilayotgan islohotlar kabi muhim barqaror

rivojlantirish parametrlari ijobiy baholanib kelmoqda. Indeks tuzuvchilari gender tenglik hamda toza suv va sanitariya ko'rsatkichlari bo'yicha 2030-yilga qadar belgilangan milliy maqsad va vazifalarga erishish imkonini borligini prognoz qilgan hamda 8 ta yo'nalishdagi islohotlarni jadalashirish zarurligini tavsiya etgan.

Demak, Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlarning to'la-to'kis amalga oshirilishi jamiyatning izchil rivojlanishi, xalq farovonligi va turmush sifati yanada yaxshilanishi. O'zbekiston xalqaro imijining yuksalishiga xizmat qiladi.

"World Justice Project" (WJP) xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan qonun ustuvorligi yillik reytingi fuqarolar, huquqshunoslar va huquq sohasidagi ekspertlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar asosida tuziladi. Uni o'lchash uchun sakkizta — hukumat vakolatlari cheklanishi, korruptsiya yo'qligi, hokimiyat ochiqchiligi, fuqarolarning asosiy huquqlariga rioya etilishi, tartib va xavfsizlik, huquqni muhofaza qilish organlari, fuqarolik va jinoyi sud jarayonlari bo'yicha omillar qo'llaniladi.

O'zbekiston 2023-yil reytingida 142 mamlakat orasida 78-o'rinni egalladi. Ro'yxatning yuqori beshligidan Daniya, Norvegiya, Finlandiya, Shvetsiya va Germaniya joy olgan.

Yaqinda Angliyaning "Legatum Institute" xalqaro tahilliy markazi mamlakatlarning farovonlik darajasi bo'yicha navbatdagi reytingini e'lon qildi. O'zbekiston ushbu reytingda 167 davlat orasida 100-o'rinni egalladi. Bu Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida uchinchi ko'rsatkich sanaladi.

Tadqiqot mualliflari fikriga ko'ra, Skandinaviya mamlakatlari — Daniya, Shvetsiya va Norvegiya dunyodagi eng gullab-yashnagan davlatlar hisoblanadi. Eng farovon mamlakatlar beshligiga Finlandiya va Shveysariya ham kirgan.

Farovonlik indeksi 2006-yildan buyon dunyo mamlakatlari erishgan yutuqlarni



ularning gullab-yashnashi nuqtayi nazardan o'lchaydigan kompozit ko'rsatkichdir. Indeks jamiyatning turli jihatlari va ijtimoiy farovonlik parametrlarini aks ettiruvchi 12 toifaga birlashtirilgan ko'plab turli ko'rsatkichlar asosida tuzilgan.

O'zbekistonning ushbu parametrlar, ya'ni ijtimoiy kapital (46-o'rin), sog'liqni saqlash (49-o'rin), xavfsizlik (53-o'rin), ta'lim (73-o'rin), shuningdek, iqtisodiyot sifati, yashash sharoitlari, infratuzilma va bozorga kirish imkoniyati, investitsiya va ishbilarmonlik muhiti, davlat boshqaruvi, shaxsiy erkinliklar, atrof-muhit bo'yicha ko'rsatkichlari unda o'z ifodasini topgan.

O'zbekistonning joriy yilda qator xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yuqorilagan. Bu haqda "Yuksalish" umummilliy harakati xabar bergan edi. Xususan, ma'lumotlar ochiqchiligi reytingida 15, hukumatning sun'iy intellektga tayyorlik, korruptsiyani qabul qilish indekslarida 14, logistika samaradorligi indeksida 11, iqtisodiy erkinlik va banklar rivojlanish maqsadlari indekslarida 8, global yumshoq kuchi indeksida 4, internetga kirish indeksida 2, demokratiya indeksida 1 pog'onaga olg'a siliish kuzatildi.

Joriy yil O'zbekiston ilk bor mehmondostlik indeksiga kiritilib, 195 davlat orasida 25-o'rinni egallaganini mamnuniyat bilan qayd etish joiz. Shu jihatdan Buyuk Britaniyaning "Time out" sayti e'lon qilgan dunyoning turli burchaklarida sivilizatsiyadan yiroq tabiiy hududlardagi "Stargazing" — yulduzlarni kuzatish uchun Top-10 turizm maskanlari ro'yxati ham e'tibori tortadi. U 1968-yili faoliyat boshlagan va bugungi kunda mamlakatning global media mehmondostlik brendi sifatida tanilgan nufuzli nashriyot hisoblanadi.

"Time out" xulosalarida AQSH, Chili, Yangi Zelandiya, Hindistonning turistik obyektlari bilan bir qatorda, Qoraqalpog'istonning asosiy ekoturizm maskani bo'lgan Ustyur tekisligi va Orol dengizi ham qayd etilgan. Saytda dengizning qurib borishi va ekologik ofat oqibatlari bilan kurashishda ekoturizmning alohida o'rni, bir necha yillardan buyon xorijiy turistlarga xizmat ko'rsatib kelayotgan "Besqal'a" turistik korxonasi hamda Orol dengizi bo'yidagi o'tovlar majmuasi haqida so'z boradi.

Bir necha kun oldin "QS" xalqaro reyting agentligi 2024-yil uchun "QS World University Rankings: Sustainability" natijalarini e'lon qildi. Unda "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti dunyo oliygohlari orasida Top-1000 lik ro'yxatida 701-o'rinda e'tirof etilgan. Bu mazkur ta'lim muassasasi Osiyoda 190- va O'zbekiston universitetlari orasida 1-o'rinni egalladi, degani.

Aslida, barcha ishlar aql va ilimga, ilg'or tajriba hamda texnologiyalarga tayanib amalga oshirilishi, mamlakatimizning dunyo reytinglaridagi o'rnini yaxshilanib boraveradi. Zero, Imom Zamaxshariy bobomiz aytganidek, "Yo' ilmi bo'l, yo' ilim tinglovchi bo'l" yoxud ilimga ergashuvchi bo'l, aslo to'rtinchi bo'lma...". Ana shunday asosda tizimli ish yuritish yurtimizni, albatta, barcha jabhalarda yetakchilar safiga olib chiqadi.

IRRIGATSIYA



TAJIRIBA OMMALASHMOQDA, TASHABBUSLAR ESA QO'LLAB-QUVVATLANYAPTI

Prezidentimiz raisligida joriy yil 29-noyabr kuni bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida bir yil davomida suvni tejash bo'yicha favqulodda ish tizimiga o'tilishi ta'kidlanib, suv xo'jaligida "Kanallarni betonlashtirish bo'yicha zarbdor yil" deb e'lon qilindi.

Unda 2024-yilda 1,5 ming kilometr, ya'ni bu yildagiga nisbatan to'rt barobar ko'p kanallarni betonlash vazifasi belgilandi. Hisob-kitoblarga ko'ra, betonlanmagan irrigatsiya tarmoqlarida yiliga o'rtacha 14 milliard kub metr yoki 36 foiz suv hech qanday iqtisodiy samarasiz isrof bo'lyapti.

Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda Navoiy viloyatida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, kanal va ichki ariqlarni betonlashtirish boshlab yuborildi. Hozir 706 kilometr kanal va ichki ariqlar betonlanishi ko'zda tutilgan.

— Bu borada belgilangan vazifalarni bajarish uchun viloyatimizda "Yo'l xaritasi" tayyorlanib, ish jadallik bilan boshlab yuborildi. Viloyatdagi barcha fermer

xo'jaliklari ichki ariqlarini betonlashtirish ko'zda tutilgan, — deydi Quyi Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari Dadajon Rajabov.

Videoselektor yig'ilishida ichki tarmoqlarni beton qoplamaga o'tkazishdan manfaatdor klaster va fermerlarga maxsus texnika va qurilish materiallaridan yordamlashib, xarajatlarni ikki karra kamaytirish imkonligi alohida ta'kidlandi. Bu borada ham hududlarda amaliy ishlar boshlangan. Jarayonda fermerlarning o'zi ham tashabbuskor bo'layotir. Qiziltepa tumanida fermer xo'jaliklari dalasigacha boradigan

ichki ariqlar uzunligi 1050 kilometrni tashkil qiladi. Ularning 185 kilometrini fermerlar tashabbusi bilan betonlashtirish rejalashtirildi va bu jarayon boshlab yuborilgan.

Navoiy viloyatida qishloq xo'jaligida suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish ham ommalashmoqda va bu boradagi



yangi tashabbuslar qo'llab-quvvatlanayapti. Xususan, Qiziltepa tumanida 2024-yil hosili uchun ekilgan g'allani sug'orish maqsadida 149 fermer xo'jaligining 2700 gektar yerida yomg'irlatib sug'orish texnologiyasini o'rnatish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Mutaxassislarning aytishicha, yomg'irlatib sug'orish ancha samarali bo'lib, suv ekinlarga sepish, purkash orqali beriladi. Yer yuzasida hech qanday suv oqimi yuqurda kelmaydi va bunda beriladigan suv miqdori to'liq ekin rivojlanishi uchun sarflanadi. An'anaviy sug'orishga nisbatan 20 foiz suv tejaladi va bir kunda 30-35 gektar yerni sug'orish mumkin. Eng asosiyi, bunda qo'l mehnati kamayadi. Karmana tumanini suv bilan ta'minlaydigan asosiy manbalar Amudaryo

G'olib ABDUSALOMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



OLYI TA'LIM

# KALQARO REYTINGLARDAGI MAVQEI

## universitetlar faoliyati samaradorligidan darak



**Nilufar IMOMOVA, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti xalqaro reytinglar bilan ishlash bo'limi boshlig'i**

mustahkam aloqalarni yo'lga qo'ydi. Times Higher Education Impact Ranking, Times Higher Education World University Ranking, QS World University Ranking, QS World University Ranking: Asia, Central Asia yo'nalishlarida qatnashish uchun universitet bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etdi.

Shu yilning iyun oyida Times Higher Education reyting agentligi THE Impact Ranking — 2023 natijalarini e'lon qildi. Unga ko'ra, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti barcha yo'nalish bo'yicha OTMlarning yetakchi 1000 taligidan o'rin oldi. O'tgan yilga nisbatan bu yilgi natijalardagi maqsadlar soni yettita taga yetkazildi hamda har bir maqsad bo'yicha 1000 talik doirasidagi o'rinlar band etildi. Xususan, qashshoqlikka barham berish, ta'lim sifati, gender tenglik, munosib ish o'rni va iqtisodiy o'sish, tengsizlikni qisqartirish, tinchlik, adolat va kuchli institut, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lidagi hamkorlik bo'yicha munosib o'rinlarni egalladi.

Ikki marotaba jahondagi yirik Round University Ranking xalqaro agentligi reytingida qatnashib, yetakchi OTMlar 500 taligidan joy oldi. RUR jahon universitetlari reytingi tizimidagi global xalqaro reyting bo'lib, 2010-yildan buyon 85 mamlakatdagi 1200 dan ortiq yetakchi OTM faoliyatini 20 ko'rsatkich bo'yicha baholaydi. Joriy yilda mazkur reyting agentligi fan yo'nalishlari reytingi natijalarini e'lon qildi. Unga ko'ra, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti gumanitar fanlar yo'nalishida ta'lim sifati bo'yicha 404-o'rinni, ijtimoiy-iqtisodiy fanlar yo'nalishida moliyaviy barqarorlik bo'yicha 493-o'rinni, ta'lim sifati bo'yicha esa 501-o'rinni egalladi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilk bor QS (Quacquarelli Symonds) xalqaro reyting agentligining QS Asia University Rankings — 2024 reytingiga kirdi. Bu yil 8-noyabr kuni QS Asia University Rankings — 2024: Central Asia reytingi natijalari e'lon qilindi. Unda universitetimiz

Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, ta'lim sifatining xalqaro maydonda raqobatbardoshligini ta'minlash, o'quv jarayoniga chet ellik talabalar hamda professor-o'qituvchilarni faol jalb qilish, oliygohning xalqaro nufuzini oshirish maqsadida jahonda tan olingan xalqaro reytinglarda ishtirok etmoqda. Jumladan, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ham jahon miqosida o'z o'rniga ega bo'lish, xalqaro darajada tanilish, ta'lim sifati raqobatbardoshligini ta'minlash borasida muayyan ishlar qilinmoqda. Bu esa universitetni xalqaro darajaga olib chiqishdagi sa'y-harakatlar hamda jahonda tan olingan nufuzli reytinglardan o'rin egallash bilan bevosita bog'liq.



Prezidentimizning "Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetini xalqaro darajaga olib chiqish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Uning amaliy natijalari universitetning hozir xalqaro maydonda tanilishida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Universitetni xalqaro darajaga olib chiqish uchun qator chora-tadbirlar belgilab olingan. Sharqshunoslik bo'yicha yetakchi xorijiy ilmiy va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, professor-o'qituvchilarni stajirovka o'tash va malaka oshirish, xodimlarni magistratura va doktoranturada o'qish uchun chet elga yuborish, xorijlik talabalar hamda yuqori tajribali olim, pedagog va mutaxassislarni ta'lim jarayoniga jalb etish shular jumlasidan.

Shuningdek, xalqaro darajaga olib chiqish bo'yicha sa'y-harakatning bir qismi sifatida jahonda tan olingan nufuzli reytinglar bilan hamkorlik ham alohida o'rinda ega. Mamlakatimizda xalqaro reytinglar bilan ishlash va ulardan joy olish bo'yicha OTMlarda samarali ishlar qilinmoqda. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ham bunday yangilanishlardan chetda emas. Oliygo'h jahondagi yirik xalqaro reytinglar, xususan, QS (Quacquarelli Symonds), THE (Times Higher Education), RUR (Round University Ranking), WURI (World University Ranking for Innovation), Greenmetrics kabi xalqaro reyting agentliklari bilan to'g'ridan-to'g'ri,

xalqaro talabalar almashinuvi bo'yicha 240-o'rin, xalqaro professor-o'qituvchilar salmog'i bo'yicha 243-o'rin, akademik obro' va ish beruvchi yo'nalishida esa 251-o'rinni egalladi. Shunday qilib, mazkur reytingda 49-o'rinni, O'zbekiston bo'yicha 12-o'rinni qayd etdi.

Ushbu munosib e'tiroflar universitet jamoasini yanada yuqori marralarga intilish hamda kelgusi reytinglarda ham munosib o'rinlar egallashga rag'bat bo'lib xizmat qiladi. Yanada ko'proq va samaraliroq ishlashga undaydi. Chunki ayni damda sharqshunoslik sohasida qilinadigan ishlar, rejalashtirilgan strategik vazifalar juda ko'p. Universitetni xalqaro darajaga olib chiqish bo'yicha belgilab olingan strategiyani muvaffaqiyatli, birinchi navbatda, muttasil takomillashtirish hamda samaradorligining monitoringi yuritilishi bilan bog'liq.

Kompaniyalar, nodavlat notijorat tashkilotlar singari OTM ham o'z sa'y-harakatini dunyoning qayerida, qaysi hamkorlar bilan va qanday amalga oshirish kerakligini hal qilishi zarur. Shuningdek, strategiya doirasini aniqlash, manfaatdor tomonlardan fikr so'rash, strategik hamkorlarni belgilab olish, professional jamoa yaratish, eng asosiy, kerakli mablag' ajratish, aloqa o'rnatish bo'yicha sa'y-harakatlarini kuchaytirish hamda kelgusidagi faoliyat bosqichini rejalashtirish olg'a siljishning asosiy garovidir. Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti xalqaro maydonda tanilish jarayonini muntazam takomillashtirib, yuqori natijaga erishish orqali mamlakatimiz oliy ta'lim tizimi rivojiga hissa qo'shadi.

TAJIRIBA

**B**ugun ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizning barcha jabhalariga transformatsiya kirib kelyapti. Ayniqsa, ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, yosh avlodning jahon andozalariga mos sharoitlarda ta'lim olishi, jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, qobiliyati, iqtidori, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilmoqda.



**Olimjon DUYSENBAYEV, Berdaq nomidagi QDUning o'quv ishlari bo'yicha prorektori, filologiya fanlari nomzodi, dotsent**

Yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash bugunning dolzarb va kechiktirib bo'lmaz vazifalaridan biri. Hayot shuni ko'rsatmoqdaki, talabalarga yuqori darajadagi bilimni faqat o'quv auditoriyasidagi mashg'ulotlar bilan berib bo'lmaydi. Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash va o'quv jarayoni sifatini oshirishda, ularni ijodiy faoliyatga jalb qilishda, ratsional fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va intellektual qobiliyatini rivojlantirishda mustaqil ta'lim alohida o'rin tutadi. Yuksak darajadagi sifatli ta'lim jarayonini amalga oshirishda mustaqil ta'lim to'ldiruvchi, rivojlantiruvchi vazifani bajaradi.

Shu o'rinda mustaqil ta'lim tushunchasiga izoh berib o'tsak. Mustaqil ta'lim — olingan bilim, ko'nikma va malakani mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shakli. Mustaqil faoliyat muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishni amalga oshirishga xizmat qiladi, o'qituvchi maslahati va tavsiyasi asosida auditoriya yoki auditoriyadan tashqarida bajariladi.

Hozirgi vaqtda talabalarining mustaqil ishlari tashkil etilishda turlicha yondashuvlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar mustaqil ishni o'qituvchilar tomonidan berilgan ma'lumotlarni o'quvchilarning idrok etishi va mustaqil tushinishi, deb hisoblaydi. Bundan kelib chiqadiki, mustaqil ish nafaqat shakl, balki o'rganish vositasi hamdir. Chunki u bir qator funksiyalarni bajarigan holda talabalarining muayyan ko'nikma va malakasini rivojlantiradi.

Tadqiqotlar natijasida talabalarining auditoriyadan tashqarida amalga oshiradigan mustaqil ishlarni tashkil etish va nazorat qilish bilan bog'liq quyidagi jihatlarni kuzatildi. Qiziqishi yuqori talabalar orasida mustaqil ishni turli amaliy loyihalarda hamda kichik tadqiqotlar shaklida bajarishga qiziqish ancha yuqori. Talabalarining qariyb 60 foizi ijodiy hamda evristik faoliyatni ustuvor hisoblaydi. Agar yetarli sharoit yaratilsa, bu yaqin istiqbolda jamiyatning ilmiy hamda innovatsion rivojlanishi uchun kuchli rag'bat bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistondagi professor-o'qituvchilarning deyarli yarmi bir oyda bitta ilmiy kitob va bir-ikkita ilmiy maqola bilan tanishadi. Jahonning nufuzli universitetlari o'qituvchilarida esa bu ko'rsatkich ikki-uchta ilmiy kitob va olti-yettitadan kam bo'lmagan ilmiy maqolani tashkil etadi. Shunday bo'lsa-da, o'zbekistonlik har 11 nafar professor-o'qituvchidan faqat bittasiga o'zining ilmiy adabiyotlar bilan ishlash faolligini qoniqsiz baholaydi. Aksariyati bu borada o'ziga yuqori baho berib, o'z ustida muntazam ishlashini ta'kidlaydi.

Xorijda talabalar mustaqil ta'limni tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha yetarlicha tajriba to'plangan. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti — OECDga a'zo mamlakatlarda OTM talabalarining o'qish faoliyatini kunlik va haftalik vaqt me'yorlari bo'yicha mehnat qonunchiligiga muvofiq belgilangan. Talabalar besh kunlik ish haftasida 40 soatgacha o'qishi mumkin. Bu kunlik dars yuklamasi 8 soatdan oshmasligi kerakligini anglatadi. O'quv yuklamasi ham, o'z navbatida, auditoriya soatlari va auditoriyadan tashqari mustaqil ishga ajratilgan soatlardan iborat. Odatda auditoriya va auditoriyadan tashqari dars soatlari bakalavr ta'lim dasturida 1:2, magistraturada esa 1:3 nisbatini tashkil etadi. Bu bir auditoriya soati ikki yoki uch soatlik auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar bilan qo'llab-quvvatlanishi zarurligini anglatadi. Demak, bir o'quv kursiga ajratilgan kredit miqdori 10 ga teng bo'lsa, auditoriya soatlarning o'zi o'rtaicha 3 yoki 4 kreditni tashkil

# O'QITISH EMAS, O'RGATISH MUHIM yoki malakali kadrlar tayyorlashda mustaqil ta'limning o'rni

etadi. Qolgan 6 yoki 7 kredit auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarga ajratiladi. Talaba bir hafta davomida o'rtaicha 10-15 soat auditoriya darslarida, 25-30 soat auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar bilan band bo'ladi.

AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlari universitetlarida talabalarining mustaqil ishlari alohida ta'limning muhim tarkibiy elementi sifatida qaralmoqda. "Umr davomida ta'lim" tamoyilining amaliyotga keng joriy qilinishi auditoriya soatlari qisqarishi hamda talabalarining auditoriyadan tashqari o'quv yuklamalari ortishiga olib keladi. Bu, birinchidan, professor-o'qituvchilar faoliyatini "o'qitish"dan ko'ra ko'proq "o'rgatish" tomon yo'naltirsa, ikkinchidan, talabalarining kasbiy o'zini o'zi takomillashtirishga bo'lgan mas'uliyati ortishiga turki beradi.

AQSH va Buyuk Britaniya universitetlarida talabalar mustaqil ishi murakkablik darajasiga ko'ra kursdan-kursga o'sib boradi. Masalan, birinchi kursda talabalar, asosan, o'quv adabiyotlari bilan ishlaydi. Har bir o'quv kursining fan dasturi (sillabus)da 1 ta asosiy va 2-3 ta qo'shimcha adabiyotlar tavsiya etiladi. Talabalarining mustaqil ishlari ham, asosan, mana shu tavsiya etilgan adabiyotlarni sharhlash, ma'ruza matni tayyorlash, lug'at tuzish yoki 1-2 sahifali esse yozish ko'rinishida amalga oshiriladi.

Ikkinchi kursda talabalar zamonaviy ilmiy tadqiqotlar bilan tanishishga jalb etiladi. Davriy nashrlarda e'lon qilingan ilmiy maqolalar bilan tanishish, kontekstlardagi asosiy tuzilmalarni ajratib olish, isbotlash usullarini aniqlash, boshqa tadqiqot ishlari bilan qiyoslash kabi vazifalar beriladi. Bajarilgan mustaqil ishlar seminar darslarida muhokama qilinadi.

Uchinchi kursda talabalar tadqiqot ishlari yoki kichik guruhlarda bajariluvchi amaliy loyihalarga jalb etiladi. Odatda mazkur ishlar ilmiy maqola yoki loyiha ishi taqdimoti ko'rinishida amalga oshiriladi. Har haftada bir marta professor-o'qituvchi bilan kelishilgan uchrashuv jadvaliga ko'ra mustaqil ishlar bo'yicha maslahatlar olib boriladi.

shaxs tomonidan bajarilgan ishlarni topshiradi. Boshqa bir tadqiqotga ko'ra, dunyo miqosida talabalarining 16 foizi mustaqil ishlarni yozdirish uchun boshqa shaxslarga pul to'lashini tan olgan. Akademik halollik tamoyili barcha nufuzli OTMlarning Axloq kodeksidan joy olgan va bu qoidani buzgan har qanday professor-o'qituvchi ham, talaba ham universitetning axloqiy masalalar bilan shug'ullanuvchi komissiyasi tomonidan intizomiy javobgarlikka tortiladi.

Aksariyat universitetlar bunday xat-ti-harakatlarning oldini olish uchun qator

Prezidentimizning 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda Jahon banki ishtirokidagi "Xalqaro rivojlantirish assotsiatsiyasi ishtirokida oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash loyihasi" doirasida universitet o'quv laboratoriyasi bazasini mustahkamlash maqsadida jami 8 ta o'quv-laboratoriya kompleksi keltirilishi rejalashtirilgan. Shundan "Kriminalistika" va "Metrologiya, standartlashtirish va o'zaro almashtirish" o'quv-laboratoriya komplekslaridan talabalar mustaqil



innovatsion choralar ishlab chiqqan. Masalan, AQSHning Jorjtaun va Xitoyning Gongkong universitetlari tajribasida talabalar mustaqil ishni topshirish vaqtida akademik halollik qoidalariga amal qilganlik to'g'risidagi deklaratsiyani imzolaydi. Bunda talaba plagiatga qo'l urish qanday choralar bilan jazolanishi mumkinligidan ogohlantiriladi va bu haqda xabardor etilgan shaxsiy imzosi bilan tasdiqlaydi. Tartibga soluvchi choralar qatorida ogohlantirish va maxsus axloqiy kurslarni majburan tinglashdan tortib, talabalar safidan chiqarilishgacha bo'lgan jazolar o'rin olgan. Mazkur oliy ta'lim muassasalarida plagiat masalalari bilan shug'ullanuvchi maxsus komissiyasi mavjud. Talabaning ishida plagiat aniqlansa, o'qituvchi bu haqda tegishli komissiyaga xabar berishi shart va komissiya bu ishni ko'rib chiqadi. Ba'zi hollarda talaba plagiat uchun o'qishdan chetlatilishi mumkin, ammo u bu ishga ehtiyotsizlikdan qo'l urgan bo'lsa, talaba ilmiy ishning xalqaro plagiat aniqlansa, o'qituvchi bu haqda tegishli komissiyaga xabar berishi shart va komissiya bu ishni ko'rib chiqadi. Ba'zi hollarda talaba plagiat uchun o'qishdan chetlatilishi mumkin, ammo u bu ishga ehtiyotsizlikdan qo'l urgan bo'lsa, talaba ilmiy ishning xalqaro plagiat aniqlansa, o'qituvchi bu haqda tegishli komissiyaga xabar berishi shart va komissiya bu ishni ko'rib chiqadi.

ta'lim jarayonida keng foydalanmoqda. Bu esa talabalarining o'z mutaxassisligi bo'yicha muayyan muammo ustida birgalikda izlanishi uchun imkoniyat yaratmoqda. Natijada yig'ilgan axborotlar va kuzatuv natijalari sintezlanib, real xulosalarga kelinmoqda.

Bundan tashqari, har bir fan kesimida ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari hamda mustaqil ishlar bo'yicha elektron modullar ishlab chiqilib, universitetning [www.http.moodle.karsu.uz](http://www.http.moodle.karsu.uz) va [ekarsu.uz](http://www.http.moodle.karsu.uz) elektron o'quv platformasiga joylashtirib borilyapti. Universitet Axborot-resurs markazi fondini boyitish, talabalarining bilimni mustahkamlash, ularni yangi avlod o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash maqsadida yetakchi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan va chop etilgan o'quv adabiyotlari doimiy ravishda xarid qilib kelinmoqda. Joriy yil avgust oyining o'zida 42 nomdagi 1000 dan ortiq o'quv adabiyoti sotib olindi.

AQSH va G'arbiy Yevropa universitetlarida professor-o'qituvchilar o'zlari hamda universitet nufuziga dog' tushmasligi uchun talabalarining mustaqil ishlarni tekshirishda plagiatni aniqlovchi [www.turnitin.com](http://www.turnitin.com) veb-saytidan foydalanadi. Har bir talaba professor-o'qituvchining talabi bilan mazkur sayt orqali ro'yxatdan o'tadi va bajarilgan mustaqil ishlarni antiplagiat tekshiruvdan o'tkazadi. Professor-o'qituvchi tekshiruv natijalariga ko'ra, mustaqil ishning originalligini baholaydi. Agar ishda plagiat aniqlansa, ish ogohlantirish bilan qaytariladi. Bu chora talabalar xato bo'lsa ham, faqat o'z fikrlariga tayanishi zarurligini eslatib turadi.

Talabalarining mustaqil ishlarni samarali tashkil etish va nazorat qilishda OTM axborot-resurs markazlarining o'rni nihoyatda muhim. Chunki talabalar auditoriyadan tashqari mustaqil ish bajarishida zarur adabiyotlarga ehtiyoj sezadi. Shu bois, AQSH va Buyuk Britaniyadagi ko'plab universitetlar o'z kutubxonalarini muttasil zamonaviylashtirib, ularni funksiyalarini kengaytirib bormoqda. Bu mamlakatlardagi aksariyat universitetlarda kutubxonalar 24 soat ishlaydi.

Hozirgi kunda Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universitetining barcha ta'lim yo'nalishlarida talabalarining mustaqil ishlarni samarali tashkil qilish uchun 35 ta o'quv laboratoriyasi xonasi zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan. Bu laboratoriyalarning 13 tasi fizika, 9 tasi kimyo-texnologiya, 10 tasi biologiya, 1 tasi yuridik fakultetlarida hamda 2 tasi ikkinchi o'quv chetlashtirishgacha bo'lgan choralar bilan jazonaladi. Ammo shunga qaramay, jahonning nufuzli OTMlarida ham bunday holatlar kuzatiladi. Masalan, Avstraliya universitetlarida olib borilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, talabalarining 8-11 foizi boshqa

Shuningdek, universitet professor-o'qituvchilari ham talabalarni o'quv adabiyotlar (tillar bo'yicha) bilan ta'minlashga o'z hissasini qo'shmoqda. Ular yaratgan adabiyotlar <https://adabiyot.edu.uz/> platformasi orqali ekspertzadadan muntazam o'tkaziladi, ushbu platforma orqali 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida 159 nomdagi adabiyotni chop etishga ruxsat berildi.

Bosh maqsad oliy ta'limda tahsil oluvchi har bir talaba mustaqil ish bajarishi davomida o'z mutaxassisligi bo'yicha ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay bilishi, har bir muammoga professional yondashib, mustaqil xulosa va qarorlar qabul qilishi, yangilik yaratish va o'z fikrini himoya qila olishi lozim.

Hozirgi kunda ta'limga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik kun sayin dolzarblik kasb etib borayotir. Jahonda PISA, PIRLS, TIMSS, TALIS kabi qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular ta'lim samaradorligini yanada oshirishdagi bosh mezon sifatida taraqqiyot davrlarida keng qo'llanilmoqda. Ishlohtlarni amalga oshirishda xalqaro standartlar darajasida yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratishga ham e'tibor qaratilmoqda.

Xulosa o'rinda aytish joizki, mustaqil ta'lim ongning hayotiy ritmik va dinamik harakatini yuzaga keltiruvchi omildir. Biz, avvalo, ta'lim sifatini tubdan modernizatsiya qilishga harakat qilganimiz zarur. Bunday sharoitda yuqori malakali mutaxassislar bo'lgan talab olib berib, barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini individual amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakasiga ega ijodkor mutaxassislar sifatida tayyorlash talab etiladi. Bu oliy ta'lim muassasasi oldida turgan strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, bugungi zamon ham malakali kadrlar tayyorlashda mustaqil ta'limning o'rni beqiyos ekanini ko'rsatmoqda.





EKSKLUZIV INTERVYU

“OTAM VATAN HASRATI VA MUHABBATINI MEROS QOLDIRGAN”

USMONXO'JA PO'LATXO'JAYEVNING FARZANDI TEMUR XO'JA O'G'LI MAMLAKATIMIZ TARIXI VA JADIDLAR MEROSI BILAN BOG'LIQ NOYOB HUYJATLARNI TAQDIM ETDI

Boshlanishi 1-betda

Temur Xo'ja o'g'li Turkistonning madaniy va siyosiy tarixiga bag'ishlangan yuzdan ortiq maqola yozgan. Ularning aksari turk va ingliz tillarida, Turkiya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Ovro'po mamlakatlari, Hindiston va Yaponiya kabi davlatlarda chop etilgan. Suhbatimiz avvalida olim ko'zida yosh bilan shunday dedi: "Tuzumlar ba'zi davrlarda og'ir bo'lishi mumkin. Lekin tuzumga qarab, inson o'z vatani bilan yuz o'g'imaydi. Men ham O'zbekistonda yuz o'g'irgan emasman, chunki O'zbekistonning kelajagiga, istiqboliga hamisha ishonganman. Menda har doim vatanimga qaytish orzusi bor."



— Temur Xo'ja o'g'li janoblari, yurtimizga xush kelibsiz! Prezidentimizning "Jadidlar: Milliy o'zlik, istiqloq va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyaga qatnashchilariga yo'llagan murojaatini katta hayajon bilan tingladik. Davlatimiz rahbari o'z murojaatida shaxsan sizga mamlakatimiz tarixi va ajdodlarimiz merosiga bag'ishlangan qimmatli hujjatlarni taqdim etganingiz uchun alohida minnatdorlik bildirdi. Ke'ling, suhbatimiz avvalida ushbu noyob meros haqida to'xtalib o'tsak...

— Mazkur hujjatlar ichida Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va faoliyati bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlar bor. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning 1907-yilda Rossiya dumasiga yoki musulmonlar fraksiyasiga topshirgan "Turkiston madaniy muxtoriyati" deb nomlangan loyihasini o'qib, o'sha paytda muhim voqe'liklarga sababchi bo'lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonni bilib olishimiz mumkin. Avvalo, Behbudiy Turkiston xalqlari uchun madaniy davlat — madaniy muxtoriyat talab qilgan. Loyihada qayd etilgan moddalarni o'qib bilish mumkinki, madaniy muxtoriyat bilan birga siyosiy muxtoriyat ham ko'zda tutilgan. Masalan, uning bir moddasida shunday yozilgan: "Turkistonga ko'chmanchilarning olib kiritilishi to'xtatilsin". Bilasiz, oqposh zamonida Rossiya hududlaridan ko'plab dehqonlar Turkiston tuproqlariga keltirib joylashtirilgan. Behbudiyning yana bir talabi shundaki, "Turkistonning tuprog'i va suv resurslaridan faqat Turkistondagi musulmonlar foydalanin". Axir Turkiston ham bir siyosiy muxtoriyat ekan, bu zaminning tuprog'i, dehqonchiligi, suv resurslaridan faqat shu o'lka aholisi foydalanishi kerak-da... Yana loyihada aytilganki, "Turkistonliklar uchun diniy idoralari tuzilishi va bu idoralarni o'zlar boshqarsin, ishimizga boshqalar aralashmasin".

Ayni hujjatda ta'lim sohasi bo'yicha ham o'ziga xos mulohazalar bildirilgan. Masalan, "Turkistondagi maktablar ham mustaqil, erkin bo'lishi kerak". Chunki o'sha paytlarda Turkistonda, asosan, rus-tuzem maktablari ochilib, bolalarga rus tilida saboq berilgan. Behbudiy "O'g'il-qizlarimiz o'zimiz ochgan jadid maktablarida ta'lim-tarbiya olishi kerak", deb yozgan.

Demak, "Turkiston madaniy muxtoriyati" deb atalgan hujjat juda noyob bo'lib, uni diqqat bilan ko'rib chiqsak, Behbudiyning madaniy muxtoriyat uchungina emas, ko'proq siyosiy muxtoriyat uchun jon kuydirayotganiga guvoh bo'lamiz. Shu o'rinda savol tug'iladi: bu hujjat nima uchun muhim? Avvalo, uning 1907-yilda taqdim

etilganiga e'tibor qaratsak, bu voqeadan 10 yil o'tib, birin-ketin muxtoriyatlar paydo bo'la boshlaydi. Demak, ular Mahmudxo'ja Behbudiyning loyihasi va undagi talablardan ilhom olgan. Qrimda Qrim-tatar muxtoriyati, Qo'qonda Turkiston muxtoriyati, Orenburgda Alasho'rda muxtoriyati, Ufada Butunrusiya turk tatarlari muxtoriyati tuziladi. Va bu muxtoriyatlar qanday tugatilgani o'zingizga ma'lum.

Keyinchalik esa jumhuriyatlar tuzila boshlaydi. Bokuda Mustaqil Ozarbayjon jumhuriyati, Buxoroda Buxoro xalq sho'rolari jumhuriyati, Xorazmda Xorazm xalq sho'rolari jumhuriyati barpo etiladi. 1923-yilga kelib esa Moskvada sovetlar kuchaya boshlaydi. Natijada Buxoroda Buxoro xalq sovet respublikasi, Xorazmda Xorazm xalq sovet respublikasi tuziladi. 1924-yilda yana mustamlakachilarning fikri o'zgarib, Buxoro xalq sovet respublikasi va Xorazm xalq sovet respublikasi tugatilib, Buxoro sovet sotsialistik respublikasi va Xorazm sovet sotsialistik respublikasi tashkil etiladi. 1925-yilda bu qaror ham o'zgartirilib, ikkala respublika ham yo'q qilinadi va O'zbekiston sovet sotsialistik respublikasi tuziladi. U paytda Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston muxtor jumhuriyatlar edi. 1929-yilda Turkmaniston va Tojikiston, 1933-yilda esa Qozog'iston va Qirg'iziston sovet sotsialistik respublikasiga aylanadi. Sovetlarning respublikalari shunday paydo bo'lgan.

Bu respublikalarning konstitutsiyasiga nazar tashlasak, ularning barchasida bir modda bor: "Bu sovet sotsialistik respublikalari xohlaganida, parlamentlari qaror qilganida mustaqil bo'la oladilar, ya'ni sovetlarning tarkibidan ajralib chiqsa oladilar". Ammo o'sha konstitutsiyalarda yana bir modda borki, bu qarorga faqat SSSR rozi bo'lishi kerakligi ta'kidlab o'tilgan. Ko'rib turibsanizki, bu ishlar barchasi siyosiy o'yin bo'lgan.

— G'arb davlatlari SSSRning statistikasini hamisha tekshirib turgan va yolg'on xabarlardan hayratga tushgan, deyishadi. Bu borada bobo-buvilarimiz ko'p gaplashar, lekin biz bularni o'sha paytlarda, tabiiyki, tushunmas edik...

— Juda to'g'ri aytdingiz, nafaqat xorijdagi uyg'oq qalbli insonlar, balki yurtimizda istiqomat qilib, barcha ko'rguliklarni ichiga yutib, indamay yashashga majbur bo'lgan ziyolilarimiz anchagina... Ular anglaganidek, Moskvada o'tirib olgan mustamlaka-

kachilar O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Qozog'istonga birin-ketin g'aroyib topshiriqlar beravergan, yolg'on raqamlar bilan o'ynilar ham davom etavergan. Maqsad Markaziy Osiyo davlatlarini mustamlaka qilib ushlab turish bo'lgan. Bunday sharoitda mafiyalashish ham kuchayib borgan. Juda ko'p siyosiy davrlarda shunday gap aylanardi: "Sovet Ittifoqi yemirilishi mumkin emas, chunki ularda yadro quroli bor". Buni qarangi, yillar o'tib yadro qurolining ham ahamiyati qolmadi. Chunki SSSR iqtisodiyoti nihoyatda nochorlashgan edi. Sovetlar dunyo bozor iqtisodi sharoitiga o'tganida bu narsa yaqqol namoyon bo'lib qoldi. Yasama qurolning davlatning umri va yo'li uzoqqa bormadi. Garchi, jahonning yadro quroliga ega eng yirik davlati bo'lsa-da...

Biroq, afsuski, shu davr mobaynida butun Markaziy Osiyoning ko'plab ma'rifatparvar, bilimdon ziyolilari o'ldirib yuborildi. O'limgan qutulib qolish uchun ko'plari xorijga chiqib ketdi. O'zbek adabiyoti esa butunlay senzuraga kiradi. Ammo millatimiz g'animilari har qancha harakat qilsa ham jadidchilik ruhini yo'q qila olmadi.

Men Oybek, Piriqul Qodirov, Odil Yoqubov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripovning ijodini kuzatganimda, bu shoir va yozuvchilar sovet davrida jadid bobolarimiz g'oyalari davom ettirganiga, ayni g'oyalari bugungi kunimizga yetib kelishida katta xizmat ko'rsatganiga amin bo'laman.

Hozirgi kunda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham jadidchilik g'oyalari mamlakatning milliy g'oyalarga aylantirishda jonbozlik ko'rsatayapti. Mustaqil bo'lgan jumhuriyatlar ichida, avvalo,

OTAM USMONXO'JA KATTA BOY BO'LGAN. BOBOMIZ PO'LATXO'JA QORAKO'L TERISI SAVDOSI BILAN SHUG'ULLANADIGAN SAVDOGAR EDI. OTAM USMONXO'JA FAYZULLA XO'JAYEV BILAN AMAKIVACHCHA. ULARNING TOSHKENT, SAMARQAND, BUXORO, O'SH, MOSKVA BIR NECHA SAVDO DO'KONLARI BO'LGAN.



davom ettirib, O'zbekistonda Markaziy Osiyoning eng ilg'or demokratik davlatiga aylantirmoqchi! Bu gaplarni eshitganimda shu qadar to'qinlanib ketdimki, jadid Usmonxo'ja Po'latxo'jayev o'z umrini tikkan g'oyalari qanchalar salmoqli va yuksakligini yanada teran angladim. O'z otam bilan yanada ko'proq faxrlandim!

— Albatta, bu voqe'lardan biz ham quvonaymiz, g'ururlanaymiz. Konferensiyaning ochilish marosimida so'zlagan ma'ruzangizda otangiz —

tanishgani uchun o'ldirilmaydi, qo'lga zanjir solib, Buxoro amiriga topshirishadi.

Otam "Yosh buxoroliklar" harakati-da ham faol qatnashadi. Keyin Buxoro amirini ag'darishgach, moliya vaziri vazifasiga tayinlanadi. Moliya vaziridan so'ng Buxoro respublikasining rahbari bo'ladi. O'sha yerdagi turk ofitserlariga "Bizga kuchli armiya tuzishda yordam bering", deydi. Bu armiya bilan Dushanbedagi bolsheviklar garnizoniga hujum qiladi. Ammo Toshkentdan boshqa kuchlar kelganida



USHBU QR-KOD ORQALI VIDEOGA O'TING.

O'zbekistonda jadidlar ilgari surgan g'oyalarning katta to'liqini yuzaga keldi. O'zbekiston ayni global dunyoda jadidchilikni davlatning milliy g'oyasiga aylantirgani uchun biz ham juda minnatdormiz. Biz bu quvvatlash holini chet elda turib kuzatganmiz. O'zbekistonda nima bo'lyapti? Markaziy Osiyoning boshqa davlatlarida qanday yangiliklar yuz beryapti? Juda qiziqardik. Vaziyatni tahlil qilish uchun turli shaharlar va maqolalar yozganmiz.

Sovet davrida yurtimizga kelishning hech imkoni yo'q edi. Va nihoyat, 1990-yildagina ota yurtimga keldim. O'sha vaqtda Mixail Gorbachev boshchiligidagi qayta qurish islohotlari davom etardi. U paytlardagi tahlika boshqa, ayni davrdagi O'zbekistonda yurib ozodlik zavqini his qilish boshqa!!! Shu kunlarga yetkazganiga shukr! Qarang, jadidlar merosi bo'yicha o'tkazilgan xalqaro konferensiya butun jahondagi eng mashhur jadidshunos olimlarni bir davrga jamladi. Har bir o'qilgan ma'ruzani ko'zda yoshimiz, qondagi qaynoq haroratimiz bilan tingladik.

O'zbekiston Prezidenti jadid bobolarimizning to'xtab qolgan ishlarini davom ettirish asosiy vazifalarimizdan biri ekanini ta'kidladi. Bu juda katta ish. Davlat rahbari jadidlarning yarim yo'lda qolgan ishini

Usmonxo'ja Po'latxo'jayevning so'nggi vasiyatlarini esladingiz. Hech shubhasiz, bu gazetxonlarimiz uchun juda qiziq. Shunday ekan, otangizning Buxorodagi va chet ellardagi taraqqiyparvarlik faoliyati haqida to'xtalib o'tsangiz...

— Otam Usmonxo'ja katta boy bo'lgan. Bobomiz Po'latxo'ja qorako'l terisi savdosi bilan shug'ullanadigan savdogar edi. Otam Usmonxo'ja Fayzulla Xo'jayev bilan amakivachcha. Ularning Toshkent, Samarqand, Buxoro, O'sh, Moskvada bir necha savdo do'konlari bo'lgan. Bobom Po'latxo'ja safarlaridan birida bola Usmonxo'jani Moskvaga olib ketgan. Dunyo qanday rivojlanib borayotganini, Moskva qanday shahar ekanini o'g'luga ko'rsatishni istagan. Keyin Istanbulga, Berlinga, Bog'chasaroga ham borishgan. "Jahondagi taraqqiyyotni kuzatib, bu ishlarining barchasi ilm orqali yuzaga kelishini anglashingni xohlayman", degan ekan bobom. Buxoroga qaytib kelishgach, otam bizning ahvolimiz qanchalar nochorligini murg'ak qalbi bilan tushunib yetgan. Shunday taassurotlar ta'sirida ulg'aygan. Yigirma yoshga kirganida O'shga borib, Dukchi eshon qo'zg'olonida qatnashadi. O'sha yerdagi otamni tutib olishadi. Biroq otasi mashhur savdogar Po'latxo'jani

yarador bo'lib, Afg'onistonga ketadi. O'sha paytda otam Usmonxo'ja 45 yoshda bo'lgan. 45 yil umri Turkistonda, 45 yil chet elda o'tgan. Afg'oniston, Pokiston va Polshada jadidlarning g'oyalari tarqib qiladigan gazeta-jurnallar chiqardi. 1968-yilda 90 yoshida Istanbulda vafot etgan. Otam chet elda yurganida ham sovetlar josuslar yuriborib, uni o'ldirishga harakat qilgan. Biroq uddasidan chiqishmagan. Jadidshunos olimlar otamni oxirgi jadid deb ataydi. U o'limgan bir kun oldin meni chaqirib, shunday vasiyat qildi:

"O'g'lim, men senga mol-mulk emas, Vatan hasratini, muhabbatini meros qoldiryapman. Yaqin yillar ichida bizning mamlakatimiz — Turkiston ozod bo'ladi. Ammo o'sha kunlarni men ko'rolmayman. Sen albatta ozodligimizni ko'rasan. O'shande Turkistonga borsang, ona yurtimga mening ko'zlarim bilan boq, o'g'lim! Sen u yerga borsang, ular seni quchoq ochib kutib oladi".

O'sha paytda otamga ko'p dedim, lekin meni kim ham tanirdi u yoqlarda, degan xayol ko'nglimdan o'tgan. Mana, bugun O'zbekistonda o'zbeklar, Qozog'istonda borsam — qozoqlar, Qirg'izistonda qirg'izlar meni ko'rishi bilan quchoqlab olyapti.

Otam rahmatli to'g'ri gapirgan ekan. Otamga, jadidlarga bo'lgan hurmatlarini menga ko'rsatishyapti. Izzat-ikrom qilishyapti. Yaratganga ming qatla shukr!

— Siz ilmiy tadqiqotlaringiz jaryonida o'zbek xotin-qizlarining hayoti va jamiyatdagi o'rni haqida ham izlanishlar olib borgan ekansiz. Mana shu jaryondagi mulohazalaringiz va xulosalaringiz bizni qiziqtiradi.

— Moskvada Sharq xotin-qizlari konferensiyasi bo'lgan. Lenin bu konferensiyada qatnashmagan bo'lsa-da, tabriknoma yuborgan. Unda shunday so'zlar bor edi: "Ayollar jahonning ko'plab davlatlarida qiyonali, zulm va zo'ravonlik ostida yashab kelmoqda. Sharq ayollari esa ulardan ham ko'proq ezilgan. Biz, bolsheviklar erkaklar va ayollar tengligini olib keldik". Men o'z tahliliy maqolamda erkaklar va ayollar tengligini bolsheviklar emas, jadidlar olib kelgan, deb yozdim va bu so'zlarimni tahlil qilib berdim. Cho'ponning "O'zbek qiziga" degan she'ri bor. U she'rda shunday deydi:

Boshqada qanot bor, ko'kka uchadir, Shoxlarga qo'nadir, bog'da yayraydir. So'zlar sadafdek, tovushi naydek. Kuyini har yerda elga sayraydir... Kulgan boshqalardir, yig'lag'an menman...

Jadidlar mahalliy xotin-qizlar ham ilm olishini, baxtli bo'lishini istagan. Ayollar paranjini tashlashi uchun, avvalo, erkaklarga ta'lim berishimiz, ularning dunyoqarashini o'zgartirishimiz kerak, deyishgan. Ammo Moskva nima qildi? Bir kuni barcha ayollarni bir maydonga yig'ib, ularning paranjilarini o'tga tashlab kuyirdi. Bu voqeadada ishtirok etgan xotin-qizlarning otasi, eri, aka-ukasi isnodga chiday olmay qoldi. Tarixga nazar tashlasak, Amir Temur davrida paranjini ko'plagan ko'p. Mirzo Ulug'bek ham o'zi qurdirgan rasadxona devoriga "Ilm olish har bir erkak va ayol uchun farzdir", deya bejiz yozdirmagan bo'lsa kerak. Demak, ayollarning ham maktabga borishga, ilm olishga haqqi bor edi. Buxoro amirigidagi barcha xotin-qizlar emas, faqat otinlargina o'qishga bordi. Maktab-madrasalarda esa faqat erkaklar ta'lim oldi.

Yana bir mulohazam. Sovet davrida xotinlarga ikkita yuk qo'yildi. Birinchidan, ayollar eng og'ir sohalarda ham faoliyat olib bordi. Qurilishda, zavodlarda va dalalarda ishladi. Traktor haydagan Tursunoylar ibrat qilib ko'rsatildi. Ikkinchidan, ish tugagach, uyiga borib yana ko'p vazifalarni bajarishi shart qilib qo'yildi. Ikki yoqlama zulm emasmi bu? Shu bois, xotin-qizlar o'zini o'zi yoqa boshladi. Sovetlar mamlakatidan boshqa dunyoning hech bir yerida ayollar qurilishda ishlamagan. Ayollar muallim bo'lsin, vrach bo'lsin, toza va shinam ofislarda ishlasin, lekin og'ir sharoitlarda ishlashi kerak emasda...

Yangi O'zbekistonda Prezident yana bir xayrii ishni amalga oshirdi. Buni ham, albatta, e'tirof etishim kerak. Men O'zbekistonga 1990-yilning oktyabrida kelgan edim. Paxta terim mavsumida butun bir universitetlar, maktablar ko'z o'ngimda yopildi. Yosh bolalar, talabalar, o'qituvchilar paxta dalalarida qish oylarigaqacha paxta terishga jalb qilindi. Keyin men televidzorda bir lavha ko'rdim: dalalarda ishlayotgan ayollar maza qilib paxta teryapmiz, deyapti-yu, tinmay yo'talyapti. Chunki samolyotlar ularning tepasidan zaharli dori sepib turgan edi. Mana endi paxta qulligiga Shavkat Mirziyoyevning sa'y-harakatlari bilan butunlay chek qo'yildi. Bu millat ravnaqi, ma'rifati, ma'naviyati, siyosati yo'lida qilingan juda katta ish.

— Chindan ham jadid bobolarimiz millat ma'rifati, ma'naviyatini birinchi o'ringa qo'ygan, xotin-qizlar qadriini ulug'lagan peshqadim insonlar bo'lgan. Otangiz Usmonxo'ja Po'latxo'jayev tug'ilib o'sgan hovliida Xalqaro jadidlar muzeyi tashkil qilinayotgan ekan...

— Buxorodagi bir shaxsga sotilgan otamning hovlisi uch-to'rt oy oldin davlat tomonidan olinib, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev uy-muzeyi tashkil qilina boshladi. Men Usmonxo'ja Po'latxo'jayev uy-muzeyi emas, Usmonxo'ja nomidagi jadidlar muzeyi bo'lsin, deb taklif qildim. Muzeyda jadidlar kutubxonasi bo'ladi va ilmiy tadqiqot uchun sharoitlar ham yaratiladi. Istanbulda mening turli tilda nashr etilgan 18 ming kitob va qo'lyozmalardan iborat katta kutubxonam bor. O'sha kutubxonani muzeyga sovg'a qilishga va'da berdim. Bu kitoblar va qo'lyozmalardan jadidlar haqida tadqiqot olib borayotgan olimlar foydalanishi mumkin. Jadidlarning ezu-g'oyalarga, otam Usmonxo'ja Po'latxo'jayevning porloq xotirasiga ko'rsatlayotgan bunday e'tibor va izzat-ikromdan boshim ko'kka yetdi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevdan juda minnatdorman. Bu ulug' inson boshlagan ishlarga zararcha hissam qo'shilsa, o'zinni dunyodagi eng baxtli inson, deb bilaman. O'zbekistonga ko'z tegmasin!

“Yangi O'zbekiston” muxbiri Muxtasar TOJIMAMATOVA suhbatlashdi.



“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1246. 43301 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Shahzod G'afforov Dizayner: Zafar Ro'ziyev